


ABDURAHMON AKBAR

# G'AROYIB AVTOBUS

(She'rlar, topishmoqlar, tarjimalar, yosh  
qalamkashlarga adabiy saboqlar)



„O'QITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY  
TOSHKENT — 2012

**УДК: 821.512.133 — 1**

**КБК 84(50')7 —**


**A 40**

Iste'dodli bolalar shoiri va tarjimon Abdurahmon Akbarning ushbu kitobchasiga uning, asosan, so'nggi yillarda yozgan quvnoq she'rlari, tarjimalari, ertak va topishmoqlari, shuningdek, adabiy saboqlari kiritildi.

**ISBN 978-9943-02-510-3**

**© „O'qituvchi“ NMIU, 2012**

# **BOLALAR TABASSUMI**



## VATAN

Har maskan, shahring  
Chamanzor, gulzor.  
Yurtdoshlarimga  
Baxt-u iqbol yor.

Husningga to'ymas  
Quyosh, oy qarab.  
Unib-o'saman  
Bag'ringda yayrab.

Mangu bo'l obod,  
Vatan — jonajon!  
O'zingsan mening  
Tanamdag'i jon.

## ONA TILIM

Ona tilim —  
O'zligim.  
O'zligim —  
O'zbekligim.

Asraganim  
tilimni,  
Sevganim  
Yurt — elimni.

\* \* \*

So'zlarga kon tilimiz,  
So'zlarga boy tilimiz.  
Dilimizning suvrati,  
Quyosh-u oy tilimiz.

Tilimiz — bu so'zimiz,  
So'zimiz — bu o'zimiz.  
Dunyoga mehr to'la  
Porlab turar ko'zimiz.

## YURT POSBONI

Xizmat qilar qo'shinda  
Mening jasur, mard akam.  
Akam borki, ko'nglim to'q —  
Chegaramiz mustahkam.

Vatan tinchligin asrash  
Har yigitning burchidir.  
Matonatli askarlar  
Yurtning obro', kuchidir.

## **TOSHKENTIM**

E'zozlanding qadimdan  
Toshqal'a, Toshminor deb.  
Ravon yo'l, baland uylar,  
Berar senga husn, zeb.

Metroning har bekati  
Bamisoli bir qasr.  
Me'mori — ona xalqim,  
Bu yerda yo'q hech bir sir.

Salobatli, bag'rikeng,  
Mehridaryo boshkentsan.  
Vatanimiz yuragi —  
Sehri dunyo Toshkentsan!

## **OZOD YURTNING OZODEBEKLARI**

O'sishmoqda yayrab, quvnab, shod,  
Durkun, sog'lom, barkamol avlod,  
Baxt etagin tutib umrbod,  
Ozod yurtning Ozodbeklari.

Ostonasi hamisha qutlug',  
Ishlar qilib har kuni ulug'.  
Jahon uzra solishgay dovrug',  
Ozod yurtning Ozodbeklari.

O'mnak bo'lgay keksa-yu yoshga,  
Yurt sha'nini ko'targay boshga,  
O'zbek shonin eltgay quyoshga,  
Ozod yurtning Ozodbeklari.

Ko'z ochmoqda nurli kelajak,  
Yurt yanada yashnab,  
                                     kulajak,  
Har go'shasin gulzor qilajak,  
Ozod yurtning Ozodbeklari.

## BOLALIK

(Zeboga)

Bolalikda hamma shod,  
Bolalikda hamma sho'x.  
Bolalikda hamma sog',  
Bolalikda kasal yo'q.

O'g'ilmidir, qizmidir,  
Bolalikda hamma bir.  
Dunyo degani — ko'cha,  
Tog'larga o'xshar adir.

Onang — oy, otang — quyosh,  
Akang, opang — qarindosh.  
Bolalikda ko'zlardan  
To'kilgan yosh — ermak yosh.

Xohi baland, xohi past,  
Xohi yoqa, xohi yeng,  
Xohi oq, xohi qora  
Bolalikda hamma teng.

Bolalik — sohira qush,  
Yaratganning san'ati.  
Go'zal shodlik, go'zal tush —  
Bu dunyoning jannati.

## ISMIM HAQIDA SHE'R

Dadam umid bilan qo'ygan  
„Rahmat“ degan ismim bor.  
O'z ismimga yarasha, xos  
Shiddatim bor, jismim bor.

Obro'talab emasman men,  
Takabbur ham emasman.  
Har qadamda ismim aytib  
Chaqiringlar demasman.

Biroq guzar, ko'cha-ko'yda  
Eshitib qolsam ismim,  
Yosh boladay quvonaman,  
Yayrab ketadi jismim.

— Baraka top, rahmat! — derdi,  
Bir ayol yosh bolaga.  
Bola ko'maklashar edi  
Shu payt o'sha xolaga.

Bir akaga tushuntirsam  
Chorsu bozor yo'lini,  
— Rahmat! — deya yo'lga tushdi  
Shodon silkib qo'lini.

„Rahmat“ oldi haydovchi ham  
Bekatda tushgach birov.  
— Ko'p rahmat! — deb boshqa kishi  
O'rniga chiqdi darrov.

Quchoq yozib degim kelar  
Bor ovoz-la shu damlar:  
— Buncha yaxshi bo'lmasangiz,  
Rahmat sizga, odamlar!

## SINFDOSHIM

Kitobdan uzmay ko'zin,  
Unutib hatto o'zin,  
Eshitmay biror so'zim,  
Sochin o'ynab o'tirar.

Bir qatorda partamiz,  
Har kun doska artamiz,  
Qoldi deguncha yolg'iz,  
Sochin o'ynab o'tirar.

Ba'zan juda sho'x, shodon,  
Ba'zan serkulgi, gapdon,  
Goh jim qolib nogahon,  
Sochin o'ynab o'tirar.

Yo'talaman atayin,  
Jilmayar mayin-mayin,  
Yoqtirishim bilmayin,  
Sochin o'ynab o'tirar.

Ko'nglimda yo'q hech kirim,  
Sinfoshim — shirin sirim.  
Bilsangiz aytинг, u kim?  
Sochin o'ynab o'tirar...

## DUO

Bo‘yi bo‘yim bilan teng,  
Cho‘qqisoqol, jikkak chol,  
Yo‘l bo‘yi — chorrahada  
Turar edi behol, lol.

Bildimki, otaxonga  
Shu topda kerak yordam.  
Huzuriga oshiqib,  
Qo‘lidan tutdim mahkam.

Otadan oldim duo —  
Oltindan ham zo‘r olqish:  
— Nasib etsin senga ham  
Bir kun mendek chol bo‘lish.

## KITOBSEVAR

— Televizor oldida  
Hecham ko‘rmadim seni.  
Qo‘lingdan kitob tushmay,  
Lol qoldiryapsan meni.

— Maqtanchoqlikka yo‘yma,  
Bu gaplarimni sira.  
Kitob varaqlamasam,  
Ko‘nglim tortadi xira.

Televizor ko‘rmayman  
Desam bo‘ladi yolg‘on.  
Bolalarbop dasturlar  
Bizga zarur har qachon.

Biroq, rostini aytsam,  
Kitobga ortiq mehrim.  
Diqqatimni tortadi  
Adabiyotning sehri.

Tiriklik mo‘jizasin  
Kitobda deb bilgayman.  
Kitob o‘qish baxtini  
Men barchaga tilayman.

...O'tayotgan har kunim  
Kinoga o'xshar go'yo.  
Do'stim, bilsang, men uchun  
Kitobning o'zi kino.

## NAVOIYLIK BOLALAR

O'n yashar bir bolakay  
Shoshilmasdan, kuttirmay,  
Navoiydan o'n to'rtta  
G'azal aytdi tutilmay.

Ikki qiz bahr-u baytni  
Boshlab yubordi keyin.  
Bundayin „olishuv“ni  
Ko'rmagan edim lekin.

Hazrat tuyuqlaridan  
Yod aytdilar donalab.  
Faxrlanib ketdim men  
Ularga to'ymay qarab.

Maqomchi qizaloqlar  
Sahnaga chiqdi so'ngra.  
Hamma lol: til-u dilda  
Bitta gap: „Buncha zo'r-a!“

Tinglab „Qaro ko'zim“ni  
Qaro ko'zlar yig'ladi.  
Navobaxsh, o't satrlar  
Yuraklarni tig'ladi...

— Adabiy uchrashuvlar  
Ko'p-ko'p bo'ladi hali, —  
Deya tilak bildirdi  
Akamiz Ashurali.

Qaytdim azim Toshkentga  
Qalbimda cheksiz surur.  
Nekbinlik, porloq ishonch,  
O'zbekligimdan g'urur.

Ishonmasang so'zimga  
Navoiyga borib ko'r.  
Navoiylik bolalar  
Navoiyni bilar zo'r!

## METRODA

Shoshib tushsam metroga  
Bitta bola joy berdi.  
Qo'lin qo'yib ko'ksiga:  
— O'tiring, aka, — dedi.

Yurmasidan uch bekat  
Bir chol kirdi vagonga.  
Shartta o'rnimdan turib  
Joy berdim otaxonga.

— Qo'yavering, — desa ham  
O'tirolmay bermalol,  
Yosh bolali kelinga  
Joyin berdi o'sha choł.

O'n chog'li katta-kichik  
Shu payt bo'shatdi o'rın.  
Bosh chayqadi otaxon —  
Qaysarligini ko'ring.

Go'zal edi bu holat,  
Nafosatga edi boy!  
Hamma yetdi manzilga  
Va hammadan qoldi joy...

## ZARDO'PPI

Bir narsaga hayronman,  
Aqlim yetmaydi, qarang,  
Yomg'irda ham, qorda ham  
Qizlar yurar boshyalang.

Nega shunday?  
                            Unsinga  
So'z qotsam qay bir kuni,  
Javobi bo'ldi qisqa:  
— Moda deydilar buni.

Turfa ro'mol bo'lsa-yu  
O'ralmasa bir bor u.  
Bosh og'risa sovuqdan  
Bu axir g'alati-ku!

Shu haqida o'ylasam,  
Yodimga tushar oyim.  
Oyim — qo'li gul chevar,  
Do'ppi tikadi doim.

Zardo'ppilar quyoshday  
Ko'zingizni oladi.  
Qalbingizga bir olam  
G'urur, quvonch soladi.

Kecha olib borgandim  
Sinfimizga bittasin,  
— Namuncha chiroyli, — deb,  
Qo'limdan oldi Unsin.


Zardo'ppi, tillo do'ppi  
Bo'lib ketdi qo'lma-qo'l.  
Shoshib qoldi qizlarjon:  
— Men ham ko'ray, qani bo'l.

Galma-galdan kiyishib  
Nozlanishdi,  
                            yayrashdi.  
Oyim tikkan zardo'ppi  
Barcha qizga yarashdi!

## QAYERDASIZ, DO'STLARIM?

Koptogim yo'q paytlari  
O'rtoqlarim ko'p edi.  
Mening orzu qilganim  
Bittagina to'p edi.

Bugun esa ikkita  
Koptogim bor,  
ko'nglim to'q.  
...O'ynay desam negadir  
Birorta ham do'stim yo'q...



## BESHIGIM

Uyquxonam — beshigim,  
Govrapo'shi eshigim.  
Jaijigina yostiqcham  
Boshimga botmas hech ham.  
Tebratsangiz allalab,  
Maza qilaman uxbab!

## DUGONALAR

Maqtanish emas, rosti,  
Har tong barvaqt turamiz.  
Qovoq solish bizga yot,  
Doim kulib yuramiz.

Kulgan o'g'il-qizlarning  
Ishlari „besh“ bo'larmish.  
Sarishta bo'lsa qancha,  
Sog'lig'i esh bo'larmish.

## G'AROYIB AVTOBUS

Dangasalikni bilmas,  
Qor, muzni pisand qilmas.  
Yog'ib tursa ham yomg'ir,  
Yo'llarda yurar g'ir-g'ir.  
Kimdir shoshar o'qishga,  
Bozorga yo'l olar kim.

Olis manzillarga ham  
Eltadi bilmay tinim.  
Rangi yam-yashil, ko'rkam  
Xizmatda erta-yu kech.  
Bu g'aroyib avtobus  
Vaqtidan kechikmas hech.

### **ERKATOY**

Ayamga dastyor qizman,  
Dadamga soya, izman.  
Buvamning „shokoladi“,  
Buvimlarga yulduzman.

„Puchuq“qiz, deb erkalab  
Mazax qilib kulasiz?  
Qanaqa qizligimni  
Bir yig‘lasam, bilasiz!

### **„CHOL“ BOLA**

Dadasidan suyunchi  
Olar olti yashar Xol:  
— Ertalab tishim tushib,  
Bo'lib qoldim endi „chol“!

### **QAY BIRI?**

— O'rik shirinmi, olma  
Bilasanmi, hoy Chaman?  
— Ikkisidan olib kel,  
Totib ko'rib, aytaman!

### **O'Z ISHINING USTASI**

Ko'rsa g'ijim gazmolni Jahli chiqar dazmolni.	Quvvatlanib, qizib tez, Ishga tushar o'sha kez.
--	--

## MAQTANCHOQ

— Men kitobni sevaman,  
Men — a'luchi bolaman.  
Darsim tayyorlamasam,  
Kasal bo'lib qolaman.

Shoirdirman juda zo'r,  
Ishonmasang, so'rab ko'r,  
Tasdiqlar Nodir, Noil.  
She'rimga hamma qoyil.

O'zi haqdagi she'rin  
Tolibjon o'qib uzoq,  
Fikr olmoqchi bo'lar  
Tursunboydan tuzukroq.

Tursunboyni bilasiz,  
Dangalchi, gapga abjir.  
Bahosin berdi-qo'ydi  
Qilmay sira yuz-xotir:

— „Men undog‘-u men bundoq“—,  
Kerak andak uyalish.  
Yozgan mashqing, og‘ayni,  
Qofiyali maqtanish!


## „KASALMAND“

— Goh oyog‘im og‘risa,  
Goh og‘rir boshim.  
Goh qulog‘im og‘risa,  
Yo'qdir bardoshim.

— Og‘rimagan joying ham  
Bormi, Vahobjon? —  
Jahlim chiqib, qosh uyib  
So‘rasam, shu on:

— Bor, — der yolg'onchi ukam  
Chekib „iztirob“  
Va ko'rsatar tirnog‘-u  
Sochini shu tob...

## „ARAZCHI“



Ayon gapki, yeging kelmas,  
Sovib qolgan ovqatni,  
Ilid qolgan bo'lsa choying  
Ichging kelmaydi sira.

Taomilar ham ranjisharkan  
Yeyilmasdan qolishsa,  
O'z-o'zidan ta'mi aynib,  
Rangi tortarkan xira.

Mevalarning orasida  
Banan juda arazchi,  
Xorijlik-da, dimog'i ham  
Huv osmonga yetadi.

O'zing, yemay, do'stga bermay  
Qizg'anib, saqlayversang,  
Po'chog'ining jahli chiqib,  
Qop-qorayib ketadi!

## TOSHPO'LAT

Kuchlilardan kuchli sanar  
Toshpo'lat o'zin.  
Isbotlamoq bo'lar bizga  
Chinligin so'zin.

Yo'l chetida yotgan bo'lsa,  
Xarsangtosh, g'o'la,  
Irg'itadi dast ko'tarib,  
Uni bir yo'la.

Kafti bilan qoq ikkiga  
Bo'ladi g'ishtni,  
Jimjiloqda mixni bukib,  
Der: — Shu ham ishmi?

Qoyil qolib hurmatlardik  
Biz uni juda,  
Bir kun bilib qoldik bari  
Ekan behuda.

...Avtobusda qaytar edik  
Uyimiz tomon,  
Qo'l ko'tarib, yo'ldan chiqdi  
To'rt-besh otaxon.

Bizlar darrov joy bo'shatib,  
Desak: — Marhamat!  
Oyna tomon yuzin burib  
Oldi Toshpo'lat.

Bor-yo‘g‘i qirq daqiqalik  
Yo‘l edi manzil —  
Do‘srimizning qilig‘idan  
Bo‘ldik mulzam, zil.

Toshpo‘latning polvonligi  
Ekan yolg‘on, puch—  
Topolmadi tik turishga  
U o‘zida kuch!

### „NOZIK ODAMLAR“

Qorni meshday polvon tog‘am  
Bolalarни to‘pladi.  
— Jiyanolim, — deb gap boshlab  
Choyidan bir ho‘pladi.

— Hademayin kelin kelib  
Boshlanadi to‘yimiz.  
Karnay-surnay „g‘at-g‘uti“ga  
To‘lar hovli-uyimiz.

Talashmanglar, tortishmanglar,  
Qovoq solib yurmanglar.  
Quvlashmachoq o‘ynamanglar,  
Bir-biringiz urmanglar.

Iflos qilmang sahna oldin,  
Chaqmang pista-bodomlar.  
O‘tiradi aynan o‘sha —  
Joyda nozik odamlar.

Tog‘amizning so‘zlariga  
Biz ham darrov  
„xo‘p“ dedik.  
Qo‘ni-qo‘shni — ko‘ringanga  
Ta’zim-la salom berdik.

G‘ayratimiz ichga yutdik,  
Zavjni ichga yutdik, biz.  
Ishonsangiz, o‘zimizni  
Zo‘rg‘a-zo‘rg‘a tutdik biz.

Yaxshi, sipo bola bo'ldik,  
Sho'xlik qilmadik biroq —  
Ko'rdik „nozik odamlarin“ —  
Bari ekan baqaloq!

### QITMIR

Beri kelmas ko'chadan Futbol o'ynab Vahobjon. Bilgani o'yin-kulgi, Sira ham qiyamas jon.	Chiqib qolsa hashar, ish, U „kasal“ bo'lib qolar. Voy-voylab ro'mol bilan Boshini bog'lab olar!
---	--

### MAQTOV QURSIN-A...

Yozib uchmi to'rtta she'r Yosh qalamkash Elomon. Maktabda o'qib berib Obro' topdi, quchdi shon.	Manmanlik-la kerilib, Ijod qilmay qo'ydiku. Soxta shoir Elomon She'r yozishdan „to'ydi“-ku...
--	--

### ISHQIBOZ

— Lola bilan rayhonni  
Yaxshi ko'raman juda.  
Dunyoning go'zalligi  
Nilufarning yuzida.

Nargisni ko'rgan onim  
Tutolmayman o'zimni.  
Undan ko'zim ololmay,  
Yo'qotaman so'zimni.

Botanika darsida  
Pichirlab, zavqdan toshib,  
Partadoshiga Vahob  
Shularni so'zlar shoshib.

Gapning uchin eshitib,  
O'qituvchi ko'p hayron:  
— Senga ishq-muhabbatni  
Kim qo'yibdi,  
Vahobjon?

Lola, Rayhon deguncha  
Darslaringni tayyorla.  
Tavba, birmas, to'rt qizni  
Sevsaya bitta bola?

Muallimaga kulib  
Vahobjon der shu fursat:  
— Yaxshi ko'rsam... gullarni  
Buning nimasi uyat?

Gul-ku axir bog' ko'rki,  
Gulni sevmagan go'ldir.  
Lolasiz tog', tog' emas,  
Rayhonsiz hovli — cho'ldir...

### CHALA ISH HAQIDA SHE'R

— Yuvgan kiringdan tortib  
Piyolanggacha chala.  
Epli-sepli bo'lishi  
Kerak axir qiz bola.

Bundan keyin har ishni  
Bajar to'liq, batartib.  
Sen yuvgan pol, oynani  
Yurmayin qayta artib.

Oyijoni Barnoga  
Bersa shunday saboq, dars,  
O'n bir yashar qizaloq  
Xayolga tolar bir pas.

So'ng nenidir chamalab,  
So'rab yana yo'l-yo'riq,  
Barro der: — Bir yumushni  
Bajarolmayman to'liq.

Chala qovursam tuxum  
Koyimaysiz sira ham.  
Chunki shunday tuxumni  
Yeyishni suyar dadam!

## HAVASKOR SURATCHI

Dadam olib berdilar  
Bizga fotoapparat.  
Bundan rosa quvondi  
Men kabi ukam Marat.

O'ttiz marta ukamni  
Olibman deng rasmini.  
Suratimni olibdi  
Ukam ham shuncha meni.

Xursand bo'lib ishimdan  
Peshayvonda o'tirsam,  
Novdalarin chayqatib  
Qo'ydi navnihol olcham.

Bir narsadan xafaday  
Tovug'im jimib qoldi.  
Jo'jalarim hurpayib,  
Yuzlarin burib oldi.

— Buncha yaxshi ko'rmasa,  
Bu bolalar o'zini,—  
Dedi bir Olaqanot  
Lo'q qilgancha ko'zini.

Shu payt payqab qoldim men  
Yuz bergenin qanday hol.  
Yangragandek tuyuldi  
Savol ustiga savol.

— Nega meni suratga  
Olmading? — dedi toychoq,  
— Nega meni suratga  
Olmading? — dedi kuchuk.

— Nega bizni suratga  
Olmading? — dedi gullar,  
— Nega meni suratga  
Olmading? — dedi mushuk.

Eshitmagan bo'lsam-da  
Hech kimdan ta'na, dashnom,  
Qilgan ishimdan rosa  
Uyaldim, xullas kalom.

## SHAHOB

Uncha-muncha gap, piching  
Kor qilmasdi Shahobga.  
Bezor edi do'stlari  
Tergab, chorlab odobga.

Burunni yengga artish  
Unga edi oddiy hol.  
Chunki Shahob yolchitib  
Tutmas edi dastro'mol.

Bilmasdi iymanish ne,  
Manziratni bilmasdi.  
Ko'y lagi kir bo'lsa ham  
Uyalmasdi u asti.

Qay bir kun butun sinf:  
Men, Gulnor, Lola, To'lab  
Betob ustozimizning  
Uyiga bordik yo'qlab.

Ishonsangiz, o'sha kun  
Barchamiz etib hayron,  
Muloyimdan muloyim  
Bo'lib qoldi Shahobjon.

Uy to'riga chorlasa  
Maqsuda Akramovna,  
Engil-boshini yechdi  
Shahobdan boshqa hamma.

U bo'lsa: — Shu yer qulay,  
Ovora bo'l mang hech ham, —  
Deya uy poygagidan  
Jilmadi biror qadam.

— Tuflingni yech, beri kel, —  
Desak ham unamadi.  
Peshanasi duv terlab,  
Gapimizga ko'nmadni.

O'zini tutdi go'yo  
Bosib olgandek tikan.  
Bilsak, sinfdoshimizning  
Paypog'i... teshik ekan!

## TOSHOYNA

Toshoynanining bir siri bor,  
Ko'plar buni bilmaydi.  
Bilganlar, xo'sh, ne bo'pti, deb  
Nazariqa ilmaydi.

Toshoynaning bir siri bor —  
Qarshisida tursang san,  
O'ng qulog'ing o'ng qulogmas,  
Chapligini ko'rasan.

Chap ko'zingni qissang, o'ngi  
Qisiladi ko'zguda.  
Ishonmasang,  
bir sinab ko'r  
Shu bugunning o'zida.

### XO'JAKO'RSIN

(S. Inoyatovning „Oyim ishdan kelgan payt“ she'rini o'qib)

Oyisi ishdan kelsa,  
Chopib qolar Sodiqjon.  
O'ziga biror yumush  
Topib olar Sodiqjon.

Artgan bo'lar changlarni,  
Quygan bo'lar gulga suv.  
Sal po'kroq-da,  
yuz-ko'zin  
Zumda bosar ter — duv-duv.

Oyijoni bu safar  
Xursand bo'lmas negadir.  
Sodiqvoyni maqtamas,  
Tin olar og'ir-og'ir.

Aytgan gapi shu bo'lar  
Boshini chayqab xomush:  
— Shu paytgacha ne qilding,  
Bor ekan shuncha yumush?..

## **YULDUZOYNING KULCHASI**

Yulduz loykulcha yopti,  
Yopib ko'chaga chopti.  
Chaqirdi Salimani,  
Chaqirdi Halimani.

Yetib kelguncha qizlar  
O'ynab bo'lishib to'ptosh,  
Loykulchani nuri-la  
Quritay dedi quyosh.

— Voy, buncha yaxshi, — dedi  
Uni ko'rib Salima.  
— Chiroyli naqshi, — dedi  
Uni ko'rib Halima.

Bosh-dumin qimirlatib  
Mana shu tobda qarang,  
Ma'qulladi qizlarning  
Gaplarin bir chuvalchang:

— Kulcha juda chiroyli,  
So'zlarimga ishon, hoy,  
Sal-pal qotgan bo'lsa ham  
Shirin ekan, Yulduzoy!

## **JO'N SAVOLGA JO'N JAVOB**

*(Hazil)*

— Mazah qilmasang, do'stim,  
Bermoqchiman bir savol:  
Nega soqol qo'yadi  
Otalar bo'lishgach chol?

— Keksalarining sovuqqa  
Yo'qligini bilasan.  
Bila turib bu holni  
So'rab nima qilasan?

Xo‘p ziyrag-u xo‘p dono,  
Otaxonlarning bari.  
Soqol qo‘ymasa... qishda  
Sovuq qotar yuzlari!

### KIM ZO‘R?

Sinfdoshlar Mirazimni  
Botir, polvon, zo‘r, deydi.  
Ishonmasang oldiga bor —  
Bilagini ko‘r, deydi.

Begonamish unga qo‘rquv,  
Vahm cho‘kar emish tiz —  
Yarim tunda mozorda ham  
Yura olarmish yolg‘iz.

Bo‘lsa bordir, shu qo‘rqmasni  
Kecha sinab atayin,  
Bir so‘z bilan zir titratib,  
Uchirdim kapałagin.

Sinfda yolg‘iz qolishini  
Sabr-u bardosh-la kutib,  
Yaqiniga bordim asta  
Nafasim ichga yutib.

Xayol surib o‘tirardi  
U doskaga boqib jim.  
Men payt poylab turib, birdan  
Qulog‘iga „Voh!“ dedim.

### TOJIBOYEV

O‘ng tomondan ikkinchi parta  
Qiyo boqib yana qarayman.  
O‘girilsa Ra’noxon, shartta  
Ko‘rmaganday sochim tarayman.  
O‘qituvchi degani degan:  
— Tojiboyev,  
doska bu yoqda!

Shunday o'tar birinchi soat,  
Shunday o'tar ikkinchi soat.  
Sinfdoshimning achchiq gapi ko'p,  
Menda esa juda mo'l toqat.  
Muallimlar takrorlar tinmay:  
— Tojiboyev, doska bu yoqda!

Sinfdoshim, sinfdoshim-a  
Ko'nglim senda,  
nahot bilmaysan?  
Qulog'imga kirmas darslar,  
Nazaringga nega ilmaysan?  
Tanbeh berar muallim yana:  
— Tojiboyev, doska bu yoqda!

Nima qilay, sakkizinchi „B“,  
Yo olaymi qo'limga qalam?  
Ich-etimni bosadi titroq  
Uch oy ta'til — yozni o'ylasam.  
Sinf rahbarim uqtirar takror:  
— Tojiboyev, doska bu yoqda!

### XAYOLPARAST

Qarshimda qordek oppoq  
to'rtburchak tog' turardi,  
Undan oshib o'tmoqning yo'q edi hech iloji.  
Cho'kich bilan ostini asta o'ya boshladim,  
Ko'rinnadi ishimning sal bo'lsa-da rivoji.

Endi nima qildim, deb, o'ylarga tolib tursam,  
Osmondan sharros-sharros  
quya boshladи yomg'ir.  
O'zimni bir chekkaga zo'r-bazo'r olib qochdim,  
Rosayam qaynoq ekan bu yomg'iri tushmagur.

Bir payt tog'ning tepasi yerga sassiz quladi,  
Atrofni chang-to'zonmas,  
qopladi oppoq ko'pik.

Yomg'ir ko'l hosil qildi,  
Barisini kuzatdim bir chekkada turib tik.  
  
Hovuchlab ichib ko'rsam o'sha dengiz suvidan  
Shirin edi bag'oyat, bir ajib is anqirdi...  
— Ko'p xayol suraverma,  
Piyolamga choy quyib, oyimlar shunday derdi...

QIYIN HISOB

Yeldek uchib o'tayotgan  
Vagonlardan uzolmay ko'z,  
Odam to'la shohbekatda  
Turib qoldi ukam beso'z.

Razm solsam, sanayapti  
Erinmasdan bitta-bitta.  
Asta turtib so'radim so'ng:  
— Xo'sh,  
yagonlar ekan nechta?

Terga botgan peshanasin  
Qashlay-qashlay, dedi Hasan:  
— Qanchaligin bilmadim-u  
Ko'chamizdan uzun ekan!

## NODONLIK

- Hech bir ariq teng kelmas,  
Kichkina Tezariqqa.
- Nima, suvi tozami,  
Yo to'lami baliqqa?
- Yo'q, yo'q, suvi tozamas,  
Balig'i ham yo'q uning.  
Kecha-yu kunduz bir xil —  
Oqishi shitob suvning.

Bu ariq bir yumushim  
Hal etar shom tushgan kez —  
Supurindi tashlasam,  
Oqizib ketadi tez.

## EHTIYOT BO'L

(*Hazil*)

„Asalari asal beradi,  
Qovog'ari qovoq beradi.  
Bo'lsa edi tovog'ari ham  
Osh suzganda tovoq berardi“<sup>1</sup>.

Aziz bobo bolajonlarga  
Bitmish shunday hazil bir ash'or.  
Uka, esing joyida bo'lsa,  
Bu gaplarga ishonma zinhor.

Kim ko'ribdi qovog'arining  
Qovoq-povoq ulashganini?  
Kim ko'ribdi tovog'arini  
Idish-tovoq ulashganini?

Qovog'ari nishini sanchsa,  
Nish tekkan joy qovoqday shishar.  
Ko'zdan chaqnab ketgan olovga  
To'rt qozonda qaynatma pishar!

Arilardan besh tosh nari yur,  
Iniga ham suqmagan tayoq.  
Yo'qsa, o'sha qovog'arilar,  
Sendan yasar kattakon „qovoq“!

---

<sup>1</sup> Shoir Aziz Abdurazzoq satrlari.

## DADAMNING „KO‘ZYOSH“LARI

Har kuni yig‘laydi dadam bechora,  
Ko‘zyoshlarin ko‘rib keladi rahmim.  
Salom beraman-da, shundoq yonidan  
Maktabim tomonga yo‘l olaman jim.

Katta bo‘lganimda yig‘latmas edim,  
Qo‘limdan kelardi hozir nima ham?  
Boshida oq qalpoq, qo‘lida pichoq,  
Tovushin chiqarmay yig‘laydi dadam.

Har kuni shu ahvol: kichik guzarda  
Sahardan kechgacha arimas odam.  
Ularga: — Osh bo‘lsin, kelib turing, — deb,  
Manzirat qilishdan charchamas dadam.

Dadam — zo‘r somsapaz, gapning ochig‘i,  
Ko‘zin yoshlarida shukr yashirin.  
Yopgan somsalari kabobdan xushbo‘y,  
Yopgan somsalari asaldan shirin!

## MENING AKAM

Mening Sobir akamni  
Butun qishloq taniydi.  
Akamdek el koriga  
Yarab yursam qaniydi.

Akam — tasvir ustasi,  
Kamera yelkasida.  
Shu ish boshin tutgan kez  
Bo‘lgan ekan rasida.

Mana, o‘n besh yildirki,  
Ish joyi to‘y-tumaloq.  
Challar, bazm,  
kuyovnavkar,  
Kelinsalom va nikoh.

Akam tasvirlarida  
Hamma o‘ynab, yayraydi.  
Kuyov bola kelinga  
Zimdan kulib qaraydi.

Akam tasvirlarida  
Yangrar surnay navosi.  
Nog‘oraning tak-tumi,  
Karnaylarning sadosi.

Otaxonlar duosi,  
Onalar tilagi bor.  
Nahorda damlangan osh,  
Bor muhabbat,  
gul, bahor!

An'ana, urf-odat,  
Qo'shiq, to'kin dasturxon,  
Akam tasvirlarida  
Tiniq,  
fayzli namoyon.

Bahor-u yoz, kuz-u qish,  
Shom-u sahar, erta-kech,  
„Videochi“ akamning  
Boshi to'ydan chiqmas hech.

Aka, to'ylar bor bo'lsin,  
Tinchlik barqaror bo'lsin.  
To'ysevar elimizga  
Omad doim yor bo'lsin!

### NORNING ORZUSI

Hofiz, shoir, olim, aktyor...  
Qisqasi, yon qo'shnim Nor,  
Buyuk bir zot bo'lmoqlikka  
Ayladi azm-u qaror.

Hali yig'in, hali majlis,  
Hali qator uchrashuv.  
Hali safar taraddudi,  
Hali jonli ko'rsatuv...

Buyuk bo'lish oson emas —  
So'zlamoq lozim mayin.  
Yugur-yugur, chop-choplarga  
Ko'milmoqlik ham tayin.

Orzusiga yetmoq uchun  
Boshlab yuborgan ishni —  
Mashq qilyapti shu kunlarda  
U suratga tushishni.

### HAMDAM

Kim pakana, kim naynov,  
Hamma har xil albatta.  
Qo'shnim Hamdamning bo'lsa,  
Qulqlari sa-al katta.

Masalan: — Hoy, qulovvoy,  
Tuz olib kel yugurib.  
Desangiz yuzlarini  
Turadi chetga burib.

Unga biroz noo'rin  
Gapirib qolsangiz gar,  
Qizarib-bo'zargancha  
Bo'lib qolar birdan „kar“.

Oyijoni ranjisa:  
— Qulog'ing yo'g'-a, bolam.  
O'zida yo'q shodlanib,  
Tuzga chopqillar Hamdam.

## YO'LI BOR

— Futbolga borardim-u  
Ishim tig'iz judayam —  
Sayhonni o't-o'landan  
Tozala degan akam.

— Qo'y-e, bahona gapni,  
O'zing o'ylab ko'r, G'ani,  
Qanday qilib yutamiz  
Sensiz beshinch „A“ ni.

Shoshilmasak bo'lmaydi,  
Kutmoqda Nor, Ochillar.  
Bir adabin yeishsin  
O'pkasi yo'q „A“ chilar.

Ishmi, e, tashvish tortma,  
G'ing demas senga akang.  
Kech tushguncha sayhonni  
Qirtishlab turar takang!



## BOLALAR VA BULUTLAR

Yerda bolalar ko‘p-ko‘p,  
Ko‘kda bulutlar to‘p-to‘p.  
Bolalar va bulutlar  
Bir-biriga o‘xshar xo‘p.

Yerda bolalar tinmay,  
Yugurgan payt vaqtি chog‘,  
Bulutlar ko‘kda suzib,  
O‘ynashar quvlashmachоq!

## QUSHLAR

Osmon to‘la turfa qush,	Chax-chaxlari yoqimli,
Qanot qoqib yayraydi.	Shodlanar ko‘zlar, dillar.
Bir-biriga gal bermay,	Ozod yurt osmonining
Chax-chaxlashib sayraydi.	Egasi axir ular.

## VARRAK QO‘SHIG‘I

Qanotsiz ham ucha olaman,  
Osmonlarni qucha olaman.  
Varrak emas,  
Men yosh do‘stimning  
Yuragiman — asov bolaman.  
Hafsalangga balli, qadrdon,  
Shamol,  
senga tashakkur ming bor.  
Salom, Quyosh,  
Salom, Ona-Yer,  
Salom, Navro‘z,  
Salom, Navbahor!

## KO‘KLAM SOG‘INCHI

Qo‘sish kuylar anhorlar, Anhorlarning kuyi — suv. Sochin chayib charchamas Unga majnuntoł — suluv.	Gulbog‘larda gul terib, Kelar quvnab, o‘ynaging. Ko‘z-ko‘z qilar daraxtlar Bir-biriga ko‘ylagin...
---	---

## ANORLAR



Bahor chog‘i bog‘iga  
Anor ekdi Anorxon.  
Suvlar tashib anhordan  
Terlar to‘kdi Anorxon.

Uch yil o‘tib oradan,  
Duv-duv tugdi anorlar.  
Mushtdek-mushtdek yoqutga  
To‘lib ketdi qanorlar.

Rang-ro‘ylari o‘xshaydi  
Anorxonning yuziga,  
Shirinligi o‘xshaydi  
Anorxonning so‘ziga...

## „MEHMON“ KO‘CHATLAR

Qo‘sni — Sherzodlardan  
Pomidor ko‘chat olib,  
Shomga qadar ekishdi  
Sevinchlar horib-tolib.

Suvdan qantarishganmi,  
Yoki tekkanmi oftob,  
Bosh ko‘tarmas ko‘chatlar  
O‘qiyotgandek kitob.

Bu ahvolni o‘zicha  
Sharhlar jajji Yulduzoy:  
— Ko‘chatlar so‘libdi, deb  
Xafa bo‘lma, Sevinchoy.

Bir-ikki kundan keyin  
Barisi turishadi.  
Mehmonlar, senga aytsam,  
Uyatchan bo‘lishadi...



## XONQIZI

Xonqizi derlar otim,  
Husnim — harir qanotim.  
Tugmachadek bo‘lsam ham  
Qalbimga sig‘ar olam.

## MUSICHA

Necha kunki, ahvol shu:  
O'zini bosar arang –  
To'rtta xasni bo'g'otga  
Qo'ndira olmay garang.

Musichaning holiga  
Achingan ko'p, kulgan ko'p.  
Yerga tushar tuxumi  
Ko'zdan tomgan yoshdek bo'p.

Tumshuqda loy iylagan  
Qaldirg'ochlar chayqar bosh:  
– Hasharga aytsang bizni  
Bo'lardi-ku, qarindosh...

## BULUT

Ko'kda og'ir kezingan bulut,  
Qay yurtlardan kelib qolding, ayt?  
Qo'y, yig'lama, g'amlaring unut,  
Hozir ayni quvnaydigan payt.

Quyosh bilan o'ynab, yayragin,  
Shamol bilan ko'kni kez g'ir-g'ir.  
Ko'zyosh to'kib ado bo'limagin,  
O'ynaganing qoladi axir...

## TABIAT QO'YNIDA DARS

Muallim bolalarni  
Dala tomon boshladi.  
Tabiat qo'ynida dars  
Ana shunday boshlandi.

— Qarshingizdag'i ekin  
Kechki kartoshka bo'lari.  
Qani aytin, u haqda  
Kim nimalarni bilar?

Odatiga binoan  
Qo'l ko'tarib der Akmal:  
— Kartoshkada, muallim,  
Ko'p bo'ladi kraxmal.

Tuganak — kartoshkalar  
Yerning ostida pishar.  
O'simligi o'tsimon,  
Nam va yorug'ni sevar.

— To‘g‘ri, — deya ma‘qullab  
Muallim silkitar bosh.  
Gapga tushar shundan so‘ng  
Eng a‘lochi Miryo‘ldosh:

— Kartoshkaning vatani  
Janubiy Amerika!  
U naqd o‘n to‘rt ming yillik  
Ajib tarixga ega.

— Rost, — degandek muallim  
Bir yutinib boshlar so‘z:  
— Kartoshkaning navi ko‘p:  
Ba‘zisi bo‘lar serko‘z.

Yog‘ga tashlasangiz ham  
Pisha qoladi darrov.  
Sabzi o‘rniga solib  
Damlasa bo‘lar palov.

Sho‘rva-yu manti, jarkop  
Kartoshka bilan xushta’m.  
Yog‘ bo‘lmasa pishadi  
Hatto qaynoq suvda ham.

Yurakka xo‘p foydali,  
Har mahal yesak bo‘lar.  
Qozonkabob kabobmas,  
Kartoshkasiz, bolalar!

...Quvnoq alfovza o‘tar,  
Bo‘ydoq muallim darsi.  
Ochilib ketar shu payt  
Hammaning ishtahasi.

Saboq tugayotganda  
Oxirlab qolgandi kun.  
Norboy aka darsiga  
Yasar shundayin yakun:  
— Eng muhimi, kartoshka  
Juda o‘ng‘ay artishga!

## CHIVIN

Qizg‘in suhbat, avjda gurung,  
Dasturxonga gap yo‘q — to‘kin.  
Uch yigitning holin ko‘ring:  
Bezor qilar bitta chivin.

Mitti jonzot qo‘rqmas alhol,  
Imkon topib qo‘nar betga.  
Tuta olmay jo‘ralar lol:  
— Nedir tekkan bu surbetga!

Uchar chivin, qo‘nar chivin,  
Qo‘ngan joyi qo‘ldir, sochdir.  
Tilga chiqar ming xil taxmin,  
Hech kim demas qorni ochdir!



## PASHSHALAR E'TIROZI

Eh, odamlar, odamlar,  
Tushunmaymiz sizlarni.  
Yetar shuncha kalaka  
Qilganingiz bizlarni.

Pashshaxona yasaysiz  
Yoz oylari kiroyi.  
Demak, o'z nomi bilan  
U — pashshalarning joyi.

Siz bo'lsa, e yo'q, be yo'q,  
Bizdan so'ramay birrov,  
Kamdek shuncha uy-hovli  
Kirib olasiz darrov!

## HAKKA

— Kecha olib qochding taroq, ko'zguni,  
Mana bugun sovun o'z joyida yo'q.  
Iningga tashiding — barini ko'rdirim,  
Uyalsang bo'lardi ko'zing qilmay lo'q.

— O'g'riga chiqarib, ranjima mendan,  
Gaplarimga ishon,— der Hakka so'zlab. —  
Sochimni tarasam degandim bir bor,  
Cho'milsam degandim odamga o'xshab!

## O'G'RIGINA HAKKAJON

Kirib-chiqib iningga  
Oxir bo'shatding bog'ni.  
Olma, uzum-ku mayli,  
Ne qilasan yong'oqni?

O'g'rigina bo'lsang ham  
Menga biroz yoqasan.  
Ayt, hakkajon, yong'oqni  
Tishsiz qanday chaqasan?..


## TABIAT ALIFBOSI

(*Turkum*)

Ustoz shoir Quddus Muhammadiyning  
yorqin xotirasiga bag‘ishlayman

A

Asalari archaga  
Atay urar ha’zan do‘q:  
— Adil, ko‘m-ko‘ksan, biroq  
Ayt, nimaga guling yo‘q?



B

Baqqa bozor borolmay,  
Baqrayib o‘yga toldi.  
Besh-olti tanga berib,  
Baliq qo‘llab yubordi.

D

Diyorimning dashti bor,  
Dashtlarining gashti bor.  
Dala, dashtin yashnatar  
Daryolarin shashti bor.

E

Etik sotib olibdi  
Etikdo‘zdan echkivoy.  
Ehtiyyotlab etigin  
Endi tinmay surtar moy.

F

Favvora — billur chashma,  
Falak tomonga shoshar.  
Faqat toshib ketmas hech,  
Feruza buloq — toshar.

## G

Gulzorim gullarga boy,  
Gavhardek yonida soy.  
Go'zal bahor kunlari  
Gullarim ochar chiroy.

## H

Handalak pishdi, mo'l bo'ldi,  
Havo aynib, ho'l bo'ldi.  
Holvadayin mazasi,  
Hil-hil, qo'lma-qo'l bo'ldi.

## I

Ilonizi yo'lda ham  
Itimiz ildam chopar.  
Izlatsak biror buyum,  
Imillamasdan topar.

## J


Jamałaksoch Jamilaning  
Jo'jası juda jajji.  
Jaladan ham qo'rqlay, jilmay,  
Jambil tagin titadi...

## K

Kuz va Bahor — opa-singil,  
Ko'plar buni biladi.  
Ko'nglin olib ikkisining  
Kifti keng Yoz kuladi.

## L

Lola sayliga chiqdi  
Lola, Lobar va G'ani.  
Lolaning ko'zi qiymas,  
Lolalarini uzgani.



## M

Majnuntolning yaprog'i  
Mayin-mayin shivirlar.  
Moviysoy to'lqinlari  
Mavj urib, jivirlar.

## N

Nok keltirgandi dadam,  
Nor bilan ko'rdim baham.  
Novvotdek ekan toti,  
Nashvati erur oti.

## O

Olam obod, charog'on  
Ostob borligi uchun.  
Odam aziz, mukarram  
Ozod yurtligi uchun.

## P


Paxta, paxta, oy paxta,  
Mo'jizaga boy paxta.  
O'zi qup-quruq, biroq  
Ichi to'la mag'iz yog'.

## Q

Qirmiz qirlar bag'riga  
Qizg'aldoqlar yarashar.  
Qo'zichoqlar ularga  
Quvonishib qarashar.

## R

Rubob chaldi Ravshanjon,  
Ra'no tushdi o'yinga.  
Ra'noning raqlari  
Rosa ham yoqdi menga.



## S

Sabzi ekib, sabzi sotdi  
Sa'va bilan sariq sirtlon.  
Sabzi ekib, sabzi sotar  
Sa'va, sirtlon shundan buyon.

## T

Tog'lar boshi oppoq qor,  
Tog' qorida viqor bor.  
Tog' ortidan yurtimga  
Tezroq kela qol, bahor.

## U

Uzum pishdi, uzum pishdi,  
Uzumda ikki ko'zim.  
Unga mendek boqib chumchuq  
Uchgisi kelmas bir zum.

## V

Vahobjonning varragi  
Varillab ko'kni quchdi.  
Vertolyotdan qolmay deb,  
Vodiy tomonga uchdi.

## X


Xo'roz xazon titsam deydi,  
Xo'rak topib yesam deydi,  
Xo'tik bo'lsa, zax kunlari  
Xrom etik kiysam deydi.

## Y

Yurtim deya yashagay,  
Yuragida o'ti bor.  
Yurtning kori, ishiga  
Yigit bo'lar madadkor.




## Z



Zangor osmon bag'ridan  
Zuhro yulduz boqar jim.  
— Zuhro singlim ismingni  
Ayt-chi, senga qo'ygan kim?

## O'



O'rmonda har daraxtning  
O'ziga xos o'mi bor.  
O't-o'lalnlar yovvoyi  
O'rdaklarga in tayyor!

## G'

G'aram titib, qarang, g'oz,  
G'o'ldirab qopti biroz.  
G'umay titib der g'urraq:  
— G'ashga tegmay tur andak.

## Sh

Shoyigullar haqida  
Shoqol she'rlar to'qidi..  
„Shoyista“ ovoz bilan  
Shimpanzega o'qidi.

## Ch

Chittak chertar childirma.  
Cho'lbaqa chapak chalar.  
Chirillashar zavqlanib,  
Charosko'z chirildoqlar.

## Ng

Biz „N“ bilan „G“ chin do'stmiz,  
„Rang“, „chang“ so'zida birmamiz.  
Ikkimizni ajratib nogox,  
„2“ baho olmang yana siz.


## Tutuq belgisi

Qaysi so'zda meni uchratsang,  
Talaffuzga bergen e'tibor.  
Behudaga yozishmas, axir  
Alisbeda aniq o'rnim bor.

## QISH ELCHISI

— Havo ochiq, yer quruq,  
Tomlar bo'lsa ajab... qor.  
Har saharda ahvol shu,  
Bu nima o'zi, Qo'chqor?

— Ko'rgan narsang qor emas,  
Kun chiqsa erir darrov.  
U zumrad qish elchisi —  
Qorning ukasi — qirov!



## QISH KECHASI

Qish kechasi, hammayoq oppoq,  
Qor ostida qirlar, dalalar.  
Kechki yetti, sakkiz bo'lmayoq  
Uylarida uxlар bolalar.

Ko'kda bedor oy, yulduz yonib,  
Qishbobo ham hech uxmlay olmas.  
U tonggacha qishloq aylanib,  
Oynalarga gul chizib tolmas.

## QORQIZ

Rahmat senga, Qorqizoy,  
Qizdirding davramizni.  
Qorbobong kelgunicha  
Zeriktirmading bizni.

Raqsga tushding, she'r aytding,  
Aytding qo'shiq, topishmoq.  
Sira so'zlab bermading  
O'zing haqingda biroq.

Bordir axir sening ham  
Qoronang va Qordadang.  
Bordir Qorqiz singilchang,  
Qorukang va Qorakang.

Ular bilan tanishish  
Biz uchun juda qiziq.  
Bu yog'i qishki ta'til,  
Vaqtimiz ham emas ziq.

Sendan bitta iltimos  
(Bog'laymiz qamishdan bel.)  
Yanagi Yangi yilga  
Barchasini olib kel.

## **QALPOQCHA**

Shahnozaning qalpog'i  
Qoldi yo'qolib.  
Kimdir xursand yurgandir  
Zap topib olib.

Qalpog'ini izladi  
Qizcha ko'z yoshlab.  
Tinchligini yo'qotdi  
Shu kundan boshlab.

Dugonalari uni  
Tutar savolga:  
— Yo'lda tushirgandirsan  
Botib xayolga.

Qarash kerak haliyam  
Hovli, uylarni,  
Ko'cha, mакtab, bozorni,  
Ariq bo'yalarin...

Naqd bir hafta eslanib,  
Maqtalgan qalpoq,  
Nuqta qo'ydi gap-so'zga  
O'sha kuniyoq!

Xullas, qalpoq barchaning  
Es-hushin oldi,  
Suhbatlarga bosh mavzu  
Bo'ldi-yu qoldi.

Yangi, issiq, sozligi  
Eslandi bir-bir.  
(Yo'qolgan pichoq sopi  
Oltindan axir).

Yo'q, hartugul topildi  
Qalpoq tushmagur.  
Yotgan ekan divanning  
Ostida qurg'ur.

Tortib olib, chang-chungdan  
Tozalab shu on,  
Kiyib bordi mакtabga  
Shahnoza shodon.

## **QOR SOG'INCHI**

Shitob yog'ib, bir kunda  
Erib ketib, suv bo'lding.  
Diydoringga to'ymadik,  
Xo'p qulqosiz, quv bo'lding.

Sog'indik, ilhaq qilma,  
Ko'proq, mo'lroq yog'gin, qor.  
Hali mart bor-ku dema,  
Mart degani bu — bahor...

Gaz serob, o'tinlar mo'l,  
G'am yema bizdan yana.  
Cho'chimaymiz sovuqdan —  
Tap-tayyor qo'lqop, chana.

## G'ALATI JUMBOQ

— Suvning qotgan holati  
Ne deyiladi, Sardor?  
— Yerda bo'lsa, muzdir u,  
Ko'kdan yog'sa, do'l yo qor.  
— Do'l va qorning erigan  
Holati ne atalar?  
— Uning bug' yo suvligin  
Bilar hamma bolalar.

— Qorning rangi qanday?  
— Oq.  
— Do'lning rangi qanday?  
— Oq.  
— Javobing to'ppa-to'g'ri,  
Bitta jumboq bor biroq.

Suv bo'lar deding hozir  
Eriyan chog' qor, do'l, muz.  
Suvda, senga ma'lumki,  
Rangdan asar yo'q hanuz.

Shu jumboq meni ko'pdan  
O'ziga asir etar:  
Qor, do'l erisa rangi  
Qani, ayt, qayga ketar?..

## UCH O'G'IL VA CHAQALOQ

(*Qo'shaloq she'r*)

OYIM menga jilmayib dedi:  
— Uyimizga KELSA gar mehmon,  
Kirmasidan turib ESHIKDAN  
Huzuriga chopib chiq shodon.

Quloq solib UKAM bu gapga  
KULAR fikrin aylab jamuljam:  
— Salom bersin unda BESHIKDAN  
Bizga o'xshab chaqaloq Nor ham!

## **QISQARTMA TOPISHMOQLAR**

### **O‘rtog‘im**

N. degan o‘rtog‘im o‘zin bog‘idan  
 Terib olib keldi I chelakcha yo.  
 – Z! – dedi bittasin tosh bilan chaqib,  
 Yeb ko‘rsam, ta‘miga gap yo‘q, ajabo!

O‘rtog‘im nimani ilindi menga,  
 Avval uning ismin aytarsiz balkim?  
 Do‘stimning ismini topmoqlik uchun  
 Shart emas bo‘lmoqlik kattakon olim.

*(Javoblari:  
 Niyoz, ikki yong‘oq, zo‘r)*

### **G‘AROYIB SOVG‘A**

Suzar edi ummonlarda K.  
 I. kezardi qalin o‘rmonda.  
 T. ikkita tosh orasiga  
 Kirib uxlар edi yobonda.

Qag‘illashdan sira to‘xtamay,  
 B. ga xalal berar edi O.  
 Botir edi B. haqiqatan,  
 Eshitmasdi u buni go‘yo.

O‘sha B. ga dadajonisi  
 Olib keldi bir sovg‘a – quvnoq.  
 Shu sovg‘aning nima ekanin  
 Menga aytib beringlar tezroq.

Ayting yana: suzardi nima?  
 Nima kezar edi o‘rmonda?  
 Qag‘illagan nima edi, xo‘sish,  
 Nima uxlар edi yobonda?

*(Javoblari: kitob, kit, it, toshbaqa,  
 Botir, olaqarg‘a)*

## „OSHIQLAR VA MA'SHUQLAR“

S.ni yaxshi ko'rар M.  
Yo'lin poylab yotar tek.  
Ko'rib qolsa qorasin  
Bo'lib oladi mushtdek.

B.ning Q.ga mehri ham  
Bo'lakcha, ajabtovur.  
Uchratmoq-chun u Q.ni  
Aylanar adir, zovur.

Shu M. va B. haqida  
Qayerda ochilsa gap,  
Ajabo, S. bilan Q.  
Deyishar: — Daf bo'lsin, daf!

(*Javoblari: sichqon, mushuk, bo'ri, qo'y*)

## TOPISHMOQLAR

Chiziq tortar qo'ng'ir qog'ozga  
Uchi qo'ng'ir, jajji oq qalam.  
Ko'rinnmagach chizgan chizig'i,  
Yonib ketar chekkancha alam.

(*Gugurt*)

\* \* \*

Qushman, lekin ucha olmayman,  
Ko'k bag'rini qucha olmayman.  
Yuragimni kim tushunar, kim?  
Tuyaga ham kelmas o'xshagim!

(*Tuyaqush*)

\* \* \*

Rangi sutdek oppoq gul,  
Gulki, ukpardek yumshoq.  
Choynak va piyolaga  
Rasmi chizilar ko'proq.

(*Paxta*)

JONLI SAVATCHA

(Ertak)

Shundoq o'rmon chetida,  
o'tloq bo'yida  
Chiroyli bir savatcha yotar qarovsiz.  
Bandi pishiq va nafis, tuxumi ham bor,  
Bunaqasin ehtimol ko'rmagansiz siz.

Ana tashvish, ana g'am,  
                             ana mashmasha,  
Chiqa olmas jo'javoy tuxumni yorib.  
Uchib kelib yoniga shu chog' kapalak,  
Yordam bermoqchi bo'lди —  
                             unnadi horib.

Hatto qo'ng'izchaning ham  
yetmadi kuchi,  
Chorasini topolmay bo'ldi ko'p halak.  
Keyin ketdi yo'liga yelka qisgancha,  
Orqasidan: „Shoshma!“ — deb  
uchdi kapalak.

Bu qandayin gap axir, bu qandayin gap?  
Nahot ko'mak berolmas  
                 ,,tutqun“ga hech kim?  
Ini tomon yo'l olgan ziyrak chumoli  
Turib qoldi jo'janing qarshisida jim.


Tezda reja tuzdi-da, o'rmonga qaytdi,  
Yetib keldi zum o'tmay do'stlarin boshlab.  
Birgalashib jo'jani tortib oldilar,  
Ahillikda, birlikda,  
haq rost, ko'kdir gap.

Jo'ja, chumchuq, kapalak,  
                         chuvalchang, qo'ng'iz,  
Chigirtka-yu chumoli do'st bo'lib qoldi.  
Savatchani to'ntarib o'tlar ustiga  
O'zlariga ajoyib in qurib oldi.

## TARJIMALAR

Yesken Yelubayev, qozoq shoiri<sup>1</sup>


### TUROBNING TAKLIFI



Seret ovqat pishirib,  
Katta laganga soldi.  
— Qani, oling, oling, — deb  
Bir fursat to'xtab qoldik.

Ko'rib quvnar ko'zimiz,  
Yutinamiz o'zimiz.  
Ovqat qaynoq edi xo'p  
Chiday olmadi Turob:  
— Endi buni yeish-chun  
Bizlarga kerak qo'lqop!

### TO'RT OYOQLI BO'LSA EDI



Buncha mazali, xushta'm  
Pishgan go'shti tovuqning.  
Go'shtdan ham o'tib tushdi  
Shirin so'zi Sodiqning.

U shoshmasdan tovuqning  
Oyoqlarin yeb oldi.  
Mazasiga to'ymasdan  
„Attang, attang“, — deb qoldi.


Boshin chayqab o'ziga  
Savol berishin qo'ymas:  
— Eh, nimaga tovuqning  
Oyog'i to'rtta emas?..

---

<sup>1</sup> Robiya Userovaning so'zma-so'z tarjimasidan foydalanildi.

## TASAVVUR

Tun cho'kkanda qarasangiz  
Ko'tasizlar albatta:  
Boshingiz tepasida—  
Ko'hna shahar bor katta!  
  
O'xhashi yo'q bu shahar  
Mo'jizaga kon rosa:  
Huv porlagan yulduzlar  
Yulduz emas — deraza.  
  
Somon yo'li — katta yo'l,  
Oy — avtobus minishga.  
Yo'lovchilar juda ko'p  
Tashib, xizmat qilishga.  
  
Bu shahar aholisi  
Shoirtabiat biram.  
She'rlar yozib chiqishar  
Tonggacha yoqishib sham.  
  
Shoirlardek donodir  
Undagi yosh-yalanglar.  
Ishonmasangiz agar,  
Tunda ko'kka qaranglar!



## KO'LMAK SUV

Yomg'ir yog'di.

Atrof ko'lmak.  
— Loyqa svjni ichma, — deb  
Sigiriga tosh irg'itar  
Bir qizcha javrab hadeb.

— Tezroq hayda! — deya uni  
Men ham qo'llab yubordim.  
Loy simirgan sigir sutin  
Aytинг, axir ichar kim?

## TOPISHMOQ

Qancha urin, bir o'zini  
Sira yeya olmaysan.  
Ovqat usiz pishgan bo'lsa,  
Og'zingga ham solmaysan.

(Tuz)

## BIZNING XO'JA

— Xizmatdagi o'g'limga  
Xat yozib ber, ol savob,  
Deb so'ragan onaga  
Nurlanboy berar javob:

— Yozuvim qing'ir-qiyshiq,  
Qilmayapman bahona.  
Hech kim o'qiy olmaydi  
Yozgan xatimni, ona.

Meni to'g'ri tushuning,  
Xat yozdirsa kimda kim,  
Uni o'qib berishga  
Borishim kerak o'zim!

## „ROMANIST“

Yoddan bir she'r o'qishin  
So'rasalar Nurlandan,  
Nurlan der: — Men kattaman,  
O'qiyman faqat roman!

Koshki, gapi rost bo'lsa,  
Nuql „3“ baho olar.  
— Endi she'rni o'qir, — der,—  
Mayda-chuyda bolalar!

## „YANGILIK“

Yaydoq yerda tunab qolib,  
Borib qay kun dalaga,  
Jaqin bitta yangilikni  
So'zлади bor bolaga:


— Bilib oldim samolyotlar  
Tunda qanday uchishin.  
Bilmasangiz, bilvolinglar—  
Gaplarimning bari chin.

Nima uchun adashmasdan  
Yurar desam yo'lida,  
Shamchalari bo'lar ekan,  
Samolyotning qc'lida...



## DAM OLSIN-DA

— Radioni kim o'chirdi,  
Kim qulog'in buradi?  
Ko'rmaidingmi, bilmadingmi? —  
Deb ukamdan so'radim.



Jilmaygancha ukam dedi,  
Tugatmasimdan so'zim:  
— Dam olish kun dam olsin deb  
Boya o'chirgan edim...

## TAVSIYANOMA

Qay bolaning „besh“i ko‘p,  
Shu bolaning esi ko‘p.  
Ko‘p bo‘lsa kimning „to‘rt“i  
O‘sha sinfning ko‘rki.  
Qay bolada mo‘l-ko‘l „uch“,  
Bilki, ishi chala, puch.  
Kim o‘qisa „ikki“ga  
Hech qarama betiga.

*Shona Smaxan o'g'li, qozoq shoiri*

## OY VA YULDUZLAR

— Olamning chiroyiman,  
Ko‘rk-u, husnga boyman.  
Oyning bu gaplariga  
Yulduzlar berishmas tan.

Ular der: — Sen Oy bo‘lsang,—  
Bizlar — ko‘k lolasimiz.  
Sen ham,  
biz ham,  
barchamiz  
Osmonning bolasimiz.



### G'ozim

— G'ozim, g'oqilla „g'oq, g'oq“,  
 Ko'lda suz jo'shib quvnoq.  
 Don-dun sochsam yeysanmi?  
 Konfet bergen deysanmi?

— Yo'q, yo'q,  
 kim ham konfet yer,  
 Menga arpa, bug'doy ber.

*Muzaffar Alimboyev*, qozoq shoiri

### OYTAQIR'DA OY YOTAR

Hovli oldi oytaqir  
 Oytaqirda oy yotar.  
 Osmondan oy tushdi deb  
 Oysha xayolga botar.

### IKKI DEGANI, PUXTA DEGANI

Birni birga qo'shsak biz	Ikki qo'l qo'shilgani —
Ikki bo'ladi.	Quchoq kattakon.
Yolg'izlanmas tortinmas,	Ikkita qanot uchun
Kuchga to'ladi.	Maskandir osmon.

Ikkita g'ildirakni  
 Haydasang o'zing —  
 Yuguradi g'izillab  
 Velosi peding.

### MART OYI

Ostob bir kun ko'kda kulsa,  
 Bir kun ko'rsatmas royish.  
 Qor „yig'lashib“ oqar suvlar,  
 Kunduz — bahor, tunda — qish.

<sup>1</sup> Oytaqir — taqir yer.

*Beysebay Kirisbayev, qozoq shoiri*

## **QUYON BILAN ESHAK**

Quyon dedi Eshakvoyga:  
— Quloqlaring buncha uzun?  
Jahli chiqди eshakvoyning:  
— Uzunquloq axir o'zing!

Bir-birini yerga urib,  
Ozor berib jon-joniga,  
Ajrim so'rab borishdilar  
Hakam Bo'rining yoniga.

Vaziyatdan foydalanib,  
Bo'ri shovvoz xullas kalom,  
Quloqlarin uzib tashlab,  
Ikkisini qildi badnom.

*Og'ageldi Allanazarov,*  
turkman shoiri

## **NOTANISH AKA-UKA**

*(Topishmoq)*

Bu ikki aka-uka  
Bir uyda yashar shodon.  
She'r o'qir, kino ko'rар,  
Birgalikda ikkovlon.  
Kipriklarin yumishar  
Bir paytda har mahal.  
Ko'rishadi bir xil tush  
Buning ustiga har gal.  
Birdek ilg'ar hammani  
Hatto birga to'kar yosh.  
Bir vaqtida uyg'onar  
Tongda — kulganda quyosh.

Men bilaman ularning  
Yana bitta „sir“ini —  
Bu ikki aka-uka  
Ko‘rishmas bir-birini...



### BO‘TALOQ

Qadrdonim bo‘taloq,  
Chin o‘rtog‘im yer yantoq.  
Bo‘taloqni uyimga  
Olib kelmayman biroq.  
U kichkina bo‘lsa ham,  
Eshikdan sig‘mas hecham!

### TOYCHOG‘IM

Toychog‘imga to‘ymayman,  
Yolin silab o‘ynayman.  
Olxo‘ri tutsam unga,  
Rosa quvonib shunga,  
— Ketma, — dedi bosh chayqab,  
— Suli yeymiz yonboshlab!



### SANOQ

Poda qaytar qishloqqa oqshom,  
Sigirlarning qorinlari mesh.  
Barmoq bukib sanay boshlayman,  
Bir, ikki, uch, uch, to‘rt, to‘rt, besh...

Olti, yetti, sakkiz deyman-u  
Adashaman sanoq, hisobdan.  
Sakkizdan so‘ng necha keladi?  
Eslay olmay xunob bo‘laman.

Hoy, sigirlar, shoshmay turinglar,  
Shamoldayin uyg‘a yelaman.  
Qolganingiz qanday sanashni  
Oyimlardan so‘rab kelaman.

## **QARG'ANING O'TINCHI**

Boshqa jonzot-qushlardan  
Bilmayman, qayerim kam?  
Ulardek oq tuxumni  
Yorib chiqqanman men ham.

Ba'zida turli-tuman  
Xayollarga boraman —  
Kim aytadi, nega men  
Ko'mir kabi qoraman?

## **UKAM TUSH KO'RGAN EMISH**

Ukam tushini so'zlab  
Lol qoldirdi hammani.  
So'zjadi qanday qilib  
Yengganin akulani.

— Ishonmayman! — dedim-da,  
Chiqib ketdim ko'chaga.  
Oldi-qochdi gaplarga  
Ishonay axir nega?

Oyimning ko'zlarini  
Shu payt qopladi qo'rquv.  
„Oh!“ deb yubordi singlim  
Yuragi etgancha „shuv“.

Shundoqqina yonimda  
Uxlagan edi ukam.  
Rost bo'lganda, bu tushni  
Ko'rgan bo'lardim men ham.

## MUSHUK NEGA YIG'LAYAPTI

Yig'layotgan mushukka  
Kelishib rahmlari,  
Tom boshidan jim boqar  
Zog'cha, savaning ban.


Majnuntol novdasi-la  
Uni silab-siypalab,  
— Namuncha yig'lamasang? —  
Deya sekin tashlar gap.

Mushuk der: — Bu peshanam  
Bo'lmasa bunchalar sho'r —  
Tug'gan uch mushukchamning  
Ko'zları, oh, yumuq, ko'r...

*Roman Sef, rus shoiri*

### 9

9 raqam chiqdi bog'ga  
Bog'dan oshib chiqdi tog'ga.  
Tog'da toyib dumalab  
Pastlikka yo'l oldi u...  
Oyog'ida turolmay,  
6 bo'lib qoldi u...



# JONIMNING SURATLARI



## QUTLUG‘ OSTONA

*Olmos mening yuragim,  
Tolmas mening yuragim.  
Kim aytadi she'rimda  
Qolmas mening yuragim.*

*Qudrat Hikmat.*

 he'riyat olami qutlug‘ olam. She'riyat olamini, jumladan, bolalar she'riyatini ham yuzlab, minglab, o'n minglab ijodkorlar yaratadilar. Bu olam yaratuvchilarini shoirlar deb ataydilar. Ularning yana bir nomi tuyg‘uchilardir. Shu nomning o'ziyoq she'r — qalb mahsuli, his-tuyg‘u hosilasi ekanini anglatadi. Sevimli shoirimiz Erkin Vohidov lutf qilganlaridek, she'r dil savoliga dilning javobi hamdir.

Ha, she'rlardan bunyod bo'lajak she'riyat olami sirlar, mo'jizalar, hayratlar dunyosidir. Boshqa adabiyotlardan farqli o'laroq, she'riyatni — badiiy adabiyotni o'qib yig'lashingiz, kulishingiz, o'yga tolishingiz mumkin. Adabiyotni, bejiz dunyoning sakkizinchi mo'jizasi deyishmaydi. Kitobimizning ushbu sahifalarida siz aziz muxlislarni bolalar she'riyati olamiga sayohatga chorlayman. Bu sayohat she'r yozishga ixlosmand kichkintoylar uchun, ayniqsa, foydali bo'lishiga ishonchim komil. Sayohatimiz mo'jazgina qo'llanmaga aylanib qoladi, degan umidim ham yo'q emas. Ushbu qo'llanmadan „Yosh qalamkashlar“ to'garagining rahbarlari, adabiyot fani o'qituvchilari, she'r yozishga ishtiyoqmandlar foydalanishlari mumkin.

Aziz bolajonlar! Mana, yangi o'quv yili boshlanishiga ham ozgina vaqt qoldi. Zerikmayapsizmi? Maktabingiz, sinfdoshlaringizni sog'i-nayotgandirsiz? Albatta, sog'inyapsiz, men buni dilimdan his etib turibman. Chunki, bir paytlar men ham sizdek bola bo'lganman, maktabda saboq olganman. Bahorda tezroq ta'tilga chiqishni, yoz oylarida sentabrning kelishini intazorlik bilan kutganman. Ta'tilda miriqib o'ynab, ota-onamga uy yumushlarini bajarishda yordam bergenman. Kutubxonadan kitoblar olib, maza qilib o'qiganman. Ayniqsa, „Tong yulduzi“, „G'uncha“ va „Gulxan“ni qo'limdan qo'y-maganman. Tush paytlarida anhorda cho'milib, tiniqib uxlashga ham, oynayi jahonni ko'rishga ham vaqt topganman.

Mana, bugun siz ham ta'tildasiz. Har haftada uyingizga o'z „oyog'i“ bilan kirib boruvchi bolalar gazeta va jurnallarini, shuningdek, ko'plab badiiy kitoblarni o'qishingizni istayman. She'rlar yod olishingizni xohlayman. Kim biladi, bir kun kelib, balki siz ham asarlar yozarsiz, qator-qator kitoblarlingiz chop etilar.

Sizga bir sirni ochay, ko'nglingizda shoir yoki yozuvchi bo'lamani, degan orzungiz bo'lsa, unga albatta yetasiz. Chunki ko'p narsa, avvalo, niyatga bog'liq. To'g'ri, hech qayerda shoir yo yozuvchilikni o'rgatadigan mактаб, олий о'кув ўрти yo'q. Lekin qunt qilsangiz, jilla qursa, ushbu ko'p yillar davomida jamlangan adabiy qaydlar, mulo-hazalar bilan tanishsangiz — biz bilan bolalar she'riyati olamiga sayohatga chiqsangiz, adabiyot, she'r, shoir va yozuvchilarning ichki dunyosi haqida anchagina ma'lumotlarni bilib olasiz. Bilganlarining esa ijod mактаби vazifasini o'taydi, badiiy asarlar yozishingizga turtki bo'ladi. Bu borada sizga omad tilayman.

Bolalar she'riyati olamiga tashrifingiz muborak bo'lsin!

## TANISHUV YOKI SHE'RIYATGA SAYOHAT

 Eni qo'ni-qo'shni bolalar Abdurahmon aka deyishadi. Ishxonam — siz uchun ko'plab badiiy kitob va darsliklar chop etib kelayotgan Cho'lp'on nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. Yulduz, Sevinch, Zebo qizlarning dadasi, Ozodbek, Fayozbek, Asilbek ismli nabiralarning buvasiman. Qariyb 40 yildan buyon sizlarga atab she'rlar yozib kelaman. O'tgan yillar davomida o'ndan ortiq she'riy kitoblarim nashr etildi.

Siz mendan shoirlikka o'qitadigan mактаб bo'lmasa, institut bo'lmasa, ijod qilishni qanday o'rgangansiz, bunga nima sabab bo'lgan, deb so'rashingiz mumkin. Shu va shunga o'xshash savollaringizga bajon-u dil javob beraman. O'ylaymanki, javoblarim adabiyotga, she'riyatga bo'lgan qiziqishingizni, havasingizni oshiradi, qo'lingizga qalam tutqazadi.

Ana endi bolalar she'riyati deb atalgan sirli va go'zal chaman-zorga sayohatimizni boshlaymiz. Shoirlarning adabiyot deb atalmish bu muqaddas bo'stonda amalga oshirgan ishlari — she'rlarini ko'zdan kechiramiz, zavqlanamiz. O'qib, o'rganamiz.

Sayohatga chiqishga tayyormisiz? Unday bo'lsa, olg'a!

## HAVASDA GAP KO'P

 aqinda 50 yoshga kirdim. Qo'limga ilk bor qalam olganimga oz emas, ko'p emas, 39 yil bo'libdi. Buning hammasiga oddiy havas sabab bo'lgan.

Dunyodan Shukur Sa'dulla degan bolalar shoiri yashab o'tgan. O'sha shoirning „Bahor“ haqida bir she'ri bor. She'rda:

*Keldi bahor, gulbahor,  
Erib bitdi oppoq qor.  
Uchib keldi qushlarjon,  
Daraxtlar taqdi marjon...*

kabi o'ynoqi misralarni o'qiyimiz.

Yoshligimda 1970-yillarning nari-berisida shu she'rni o'tirsam ham, yursam ham yoddan aytaverardim. Qushlarning „qushlarjon“ deb atalgani, daraxtlarning „marjon“ taqqani har gal bir hayratimga o'n hayrat qo'shar edi.

Bir kuni ona tili va adabiyot fani o'qituvchimiz Lolaxon opa Yusupova uyg'a „Bahor“ mavzusida insho yozib kelish vazifasini topshirdi. Sinfdoshim G'afurjon bilan inshoni birlashib yozishni dars paytida va'dalashib olgan edik. Xullas, tashqarida qish, sovuq, tanchadagi qo'r taftiga oyog'imizni toblab, ikkimiz bahorni rosa madh etdik. Inshoni Shukur Sa'dullaning yuqoridagi she'riga nihoyatda o'xhash misralar bilan yakunladik.

„Shoirchilik“ shu voqeadan so'ng boshlandi.

O'shanda 1973-yilning bahori arafasi edi.

Oradan ancha vaqt o'tib, ikkinchi marotaba „she'r“ yozishga kirishdim. Unga ham havas sabab bo'ldi.

1974-yil, bahor kunlarining birida qo'limga „Yangiyo'l“ tuman gazetasi tushib qoldi. Gazetada qo'shni matabning 4-sinfida o'qiydigan bir san'atsevar qiz haqida magola chop etilgan ekan. U qo'shiq aytib, nufuzli tanlovda yuqori o'rinni olibdi. Shu qizga biram havasim keldi! Qo'shiq aytganiga emas, gazetada chiqqaniga! Bolaman-da, endi meni kim gazetaga maqtab yozar ekan, deb rosa bosh qotirdim. Keyin o'zim gazetaga biror narsa, masalan, „she'r“ yozib jo'natsam bo'ladi-ku, degan fikrga keldim. Va bu ishning „hadisi“ni olganim yodimga tushib, „she'r yozish“ odatimni yana yangidan boshlab yubordim. Daftar-qalamimni olib lolaqizg'aldoq

bilan bezangan loyshuvoq tom ustiga chiqib ketdim. Kechgacha ko‘zimga nima ko‘rinsa, o‘shani maqtab, ta‘riflab yozaverdim, yozaverdim. Chipor tovug‘imga 164 qator „she‘r“ bag‘ishladim. Araqxo‘rlik haqida „Voy belim, voy, voy belim“ radifli (radifning nimaligini keyin bilganman) „asar“ yozdim. Keyin ularni onam, opam, ammam, dadamga o‘qib berdim. Ular: „Yoz, bolam, yoza-ver!“ — deyishdi.

Yoza-yoza she‘rda „qofiya“ degan narsa bo‘lishi kerakligini ni-hoyat fahmlab qoldim. Qofiya nimaligini bilasiz-a? Bu bir-biriga ohangdosh so‘zlar degani-da!

Masalan, „so‘z“ so‘ziga „ko‘z“ yoki „bola“ so‘ziga „lola“ so‘zi qofiyadosh bo‘ladi. Bu yodingizdan ko‘tarilmasin, chunki menga o‘xshab birdan she‘r yozgingiz kelib qolsa, buni bilishingiz sizga juda asqotadi.

Qofiya she‘rda katta o‘rin tutishini bilib olgach, tovuq va araqxo‘rlik mavzularini bir chetga yig‘ishtirib qo‘yib, qofiya yig‘ishga kirishib ketdim. Xayolimga kelgan so‘zga qofiya topa boshladim. Masalan, daftarga „tosh“ so‘zini yozaman-da, yoniga chiziqcha tortib, „bosh“, „osh“, „yosh“ so‘zlarini yozib ketaveraman.

Bu mashg‘ulot o‘zimga rosa yoqib qoldi. Darvoqe, bo‘sh vaqtingizda siz ham shunday yumush bilan bir shug‘ullanib ko‘ring. Hech bo‘limganda, so‘zlarni to‘g‘ri yozishni o‘rganib, diktantdan „a‘lo“ baho olasiz.

## BOLALIKDAGI QIZIQISHLARIM

 Bolalikdagagi qiziqishlarimning she‘riyatga qiziqishimga qanchalar daxli bo‘lgan, ochig‘i, hozirgacha bilmayman. Biroq, ular haqida hikoya qilib berishdan o‘zimni sira tiya olmayapman. Bahonada bolaligimni xotirlab olaman-da.

Aytib o‘tganimdek, 8–12 yoshlik chog‘larim 1970–1974-yillarda kechgan.

Oilada to‘ng‘ich farzandman. Dadam Turg‘un Akbarov qishloq dalasida hisobchi bo‘lib ishlar, opam, ya’ni onam Rahima Akbarova maktabda boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta‘lim berardi. Shuurimga hisobchi va o‘qituvchining o‘g‘li hamma narsani bilishi, hamma narsada ilg‘or bo‘lishi va o‘z tengdoshlariga namuna ko‘rsatishi kerak, degan tushuncha o‘rnashib qolgan. Shu bois, har narsaga qiziquvchanligim kundan kunga ortib borardi.

Ko'p buyumlarni, masalan, koptokdan tortib hushtakkacha, rubobdan tortib kamongacha — barini o'zim yasashga qiziqar edim. (Holbuki, o'sha paytlarda prima rubobim ham, velosipedim ham, to'pim ham bor edi). Endi bilsam, bunday buyumlarni mustaqil yasab, zavqlangan ekanman. Aytgandek, qo'shni o'rtoqlarim ham har narsaga qiziquvchan bolalar edilar. Biz rubobni yog'ochga sim bog'lab, koptokni qog'oz yoki eski lattalarni o'rab-chirmab, „telefon“ni gugurt qutilarini bir-biriga ip bilan tutashtirib yasab olardik.

Endi o'y lab ko'rsam, ana shu topqirliklarimiz, yangiliklarga o'chligimiz mening badiiy adabiyotga qiziqib qolishimga turki bo'lgan ekan.

She'rning bir uchi topqirlikka borib taqalishini yodingizdan chiqarmang! Qofiya, bo'g'in, turoq kabi o'lchov, elementlar she'rning tashqi ko'rinishi, ustki „libosi“ hisoblanadi.

Keyinchalik she'r o'z-o'zidan emas, balki nimadir, qandaydir voqeа-hodisa sabab bo'lib, ma'lum bir holatda, ya'ni ilhom kelganda yozilishini payqab qoldim. Bilsam, yozilajak satrlar dastlab *ko'ngilda tug 'ilib*, so'ng qog'oz betiga tushar ekan. She'rning topqirlik mahsuli ekanini, unda qandaydir o'ziga xos fikr, holat, his-tuyg'u aks etishi lozimligini, ya'ni fikr, o'y, mushohada ma'lum bir „yolg'on“ga „qorishtirib“ berilishi shartligini men ancha keyin, 1981-yillarda — 19 yoshlarimda bilganman. Ungacha gazeta va jurnallarda 50 dan ortiq she'rim, 200 — 300 ta maqola, xabarim bosilgan bo'lsa-da, nima she'r-u, nima she'r emasligini birovga tushuntirib berolmaganman. Tushuntirishganda o'zim hech narsani anglamaganman.

1969-yilning qishida hayotimda g'aroyib voqeа sodir bo'ldi. Biz „Alifbe“ bayramini o'tkazdik. She'r eshita turib men ilk bor qattiq hayajonga tushdim. Bu odatiy hayajon emas edi...

### „ALIFBE“ BAYRAMI

 Ytib o'tganiddek, „Alifbe“ bayrami hayotimda o'chmas iz qol-dirgan birinchi tadbir bo'ldi. Men she'r deb atalgan mo'jizaga birinchi marta o'sha bayramda, 7 yoshimda duch keldim. Bayramda 1- „V“ va „G“ sinflari o'quvchilari (men „G“ sinfida o'qirdim) qatnashishdi. Barcha bolalar yoddan ikki qatordan alifbe harflariga bag'ishlangan she'rlarni o'qigach, davraga Abdurashid bilan Gulchehra ismli „V“ sinfi o'quvchilari chiqishdi. Ular qo'g'irchoq haqidagi

she'mi qoyilmaqom qilib aytib berishdi, eshitib, og'zim ochilib qoldi. Nega men shu she'rni aytmadim, shu she'rni nega menga yodlatishmadi deb kattalardan anchagacha xafa bo'lib yurdim. Mana o'sha she'r:

*Qo'g'irchog'im Natasha,  
Yeb qo'yibdi ko'p kasha.  
Endi nima qilamiz?  
Do 'xtirga oboramiz.*

*— Allo, allo, do 'xtirjon,  
Bizda bitta kasal bor!  
Uning oti qo'g'irchoq,  
Familiyasi o'yinchoq.*

Qo'g'irchoqning familiyasi „bo'lishi“, uning o'yinchoq ekanı mening murg'ak tasavvurimni ostin-ustun qilib yuborgan, nazarimda dunyoda bundan qiziq va bundan maroqli she'r yo'qdek edi o'sha kezlarda.

Mana shu sodda tashbeh, badiiy „yolg'on“ ko'nglimni ancha vaqt o'ziga maftun etib, bir umrga xotiramda qoldi.

## IKKINCHI HAYAJON

*S*e'r tinglab, ikkinchi marta qattiq hayajonlangan kunimni ham juda yaxshi eslayman.

1975-yilning 9-mayida Yangiyo'l tumanidagi Niyozbosh qishlog'inining „Madaniyat“ saroyida katta adabiy-badiiy uchrashuv bo'lib o'tdi.

Qishloq mutasaddilari Niyozboshdagi beshta maktabning 200 ga yaqin 4–5-sinf o'quvchilari uchun eng yetuk bolalar shoirlari va yozuvchilari bilan adabiy-badiiy uchrashuv tashkil etishgan edi. Quddus Muhammadiy, Ilyos Muslim, Aziz Abdurazzoq, Miraziz A'zam va yana boshqa ko'plab taniqli ijodkorlar bu uchrashuvga Toshkentdan yetib kelishgan edi.

Aziz Abdurazzoq bilan Miraziz A'zam o'qigan she'rlar hanuz qulog'im ostida jaranglab turganday. Ayniqsa, Aziz akaning „Arslon“ degan she'rini barcha bola gulduros qarsaklar bilan kutib olgan edi. O'shanda shoir uni shunday o'qigan edi:

### Arslon

*Men arslondan qo'rqmayman,  
U — kuchukning kattasi.  
Men arslondan qo'rqmayman,  
U — kuchukning dadasi.*

*Yaqin borib qarasam,  
Toji emas, sochi bor.  
To'ni sariq, beqasam,  
Xo'rozlarday toji bor.*

*Deyman unga achinib,  
Taranishga qo'li yo'q.*

*Yoyib yurar sochini,  
Oldirishga puli yo'q.*

Qisqasi, 13 yoshimda xotiramga naqshday muhrlanib qolgan bu uchrashuv mening adabiyotga, she'riyatga bo'lgan mehrimni ni-hoyatda oshirib yubordi, yana qog'oz qoralashimga turtki bo'ldi. Uchrashuvdan qaytgach, kelajakda albatta shoir bo'laman, ijod bilan shug'ullanaman, deb o'zimga o'zim so'z berdim.

1975-yilning kuzidan „Yangiyo'l“ gazetasi qoshidagi „Orzu“ to'garagi mashg'ulotlariga qatnab, shoir va muallim Obid Rasuldan she'r borasida saboq oldim. 1977-yili „Tong yulduzi“ gazetasi qoshida „Yosh muxbirlar maktabi“ ish boshladi. Bu mактабга qatnab, bolalar shoiri Hamza Imonberdiyev bilan tanishdim. Undan she'r yozish sirlarini o'rgandim. 1978-yilning boshida O'zbekiston radiosining „Bolalar va o'smirlar uchun eshittirishlar tahririyyati“ qoshida „Binafsha“ adabiy to'garagi ochildi. O'zbekiston xalq shoiri Quddus Muhammadiy boshqargan bu to'garak mashg'ulotlariga muntazam ravishda qatnashdim. To'garakda Po'lat Mo'min, Muhammadjon Qo'shoqov, Rauf Tolib, Ilyos Muslim, Berdiboy Ergashev, Sulton Jabbor, Temur Ubaydullo, Ikrom O'tbosarov, Olim Mahkam, To'lqin Ilhomov, Meli Normatov kabi shoir va jurnalistlarning suhbatlarini tinglab, „ijod“ga zo'r berdim.

O'sha kezlarda oddiy so'zlarni tizish, „lola“ga „bola“ni qofiyalashdan nariga o'tmasdim. Qancha harakat qilmay, qancha istamay, Quddus bobom aytgan „ong ko'zim“ ochilay demasdi. Hamza akam biłan Temur akam she'r haqida qancha tushuncha berishmasin, mashqlarimning u yer bu yerini tuzatishib, „Tong yulduzi“ va „Gulxan“da chiqarishmasin, men chin ma'nodagi she'rning asl mazmun-mohiyatini, uning qanday va qay tariqa, qay taxlit dunyoga kelishini bilmasdim. Bila olmayotganidan gohida ich-ichimdan ezilib, yig'lardim...

„G'uncha“, „Gulxan“ va „Tong yulduzi“dan paydar-pay javob xatlari olardim. Xatlarda she'rلаримда badiiyat yo'qligi sababli, ulardan jurnal yoki gazetada foydalanish imkonni bo'lмаганлиги bayon etilar edi...

Badiiyati nima ekan, tashbehi nima ekan deb boshim qotardi. Biroq bularni menga hech kim sodda tilda tushuntirib bera olmasdi.

## KUNLARDAN BIR KUNI

*K*unlardan bir kuni mo'jiza ro'y berdi! Kutilmaganda ong ko'zim „yarg“ etib, o'z-o'zidan ochilib ketdi! Zehnim tiniq tortib, yozganlarim (bu paytda mashq she'rlarim 100 tadan oshib ketgan edi) nimaga yarashini bir necha soniya ichida bilib oldim.

Men barcha mashq daftarlаримни navbat bilan varaglab, har bir mashqimni ovoz chiqarib o'qidim, o'qib bo'lgach, „xo'sh, nima bo'libdi shunga?“ deb savol bera boshladim. Shu ayovsiz savolimga „hech nima!“ degan javobni olgan mashqlаримни bir tomonga, mardona „ko'krak kerib“ tura olgan she'rlаримни ikkinchi tomonga qo'ydim. „Hech nima“ga arzimagan (to'g'rirog'i, arzigan) bir quchoq qoralamalarimni ko'zimni chirt yumib pechka ichidagi o'tga tashlab, yoqib yubordim! Qo'limda 20 tagina she'r qoldi, xolos.

Mashq she'rlаридан, og'ir bo'lsa-da, voz kechish odатим keyinchalik ham qolmadi. 1986, 1999, 2009-yillarda ham talaygina qoralamalarimning bahridan o'tdim.

Quyidagi she'rlarni 14 yoshimda yozgandim.

### Mehrbon quyosh

Bahor keldi.  
Sevinib,  
Bulut to'kdi duv-duv yosh.  
Mehri bilan chulg'adi  
Zaminni boboquyosh.  
  
Keyin kumush bulutga:  
— Ko'z yoshingni artib ol, —  
Degandayin jilmayib  
Tutdi kamalak — ro'mol.

(1976)

### Kichkintoy chavandoz

Jajjigina G'anisher  
Chavandoz bo'laman der.  
Poygalarda qatnashib,  
Sovrinlar olaman der.

Unga: — Toying yo'q-ku, — deb,  
Maslahat solgunimcha,  
Ukam der: — Ot bo'lasiz,  
Samantoy olgunimcha!

(1976)

## SHE'R QANDAY YOZILADI?

*S*e'r yozish ham, ilhom deb atalgan ne'mat ham aslida qiyosi yo'q sirli-sehrli jarayon. Masalan, o'nta shoirdan she'r qanday yoziladi deb so'rasangiz, o'n xil javob eshitasiz, yoki o'nta shoirning,

deylik, ona mavzusidagi o'nta she'rini topib o'qisangiz, ular o'n xil yozilganini ko'rasiz. Bu holat she'rning o'ziga xos hodisa, o'ziga xos yangilik sifatida dunyoga kelishidan darak beradi. She'r yozishni mashq qilish uchun, avvalo, she'rning o'zi nima ekanini bilib olish, tushunish, his qilish, texnikasini puxta egallash zarur bo'ladi. Adabiyotshunos olimlarimiz she'rga: „fikrning his-tuyg'uga qorishiq ifodasi, hayajonli she'riy nutq, ma'lum ohangga ega badiiy asar“, — deb ta'rif berishgan. „She'r“ so'zi arabcha bo'lib, tarjimasi shuur, sezgi degan ma'noni ifodalaydi.

Bu fikrlardan quyidagi xulosani chiqarishimiz mumkin.

Birinchidan, she'rda albatta fikr va tuyg'u bo'lishi, u o'quvchini hayajonga solishi kerak.

Ikkinchidan, qoidasiga ko'ra she'rdagi so'zlar ma'lum bir tartib, ohangga ega bo'lishi lozim. Bu tartib bo'g'in, turoq va boshqalarda qofiyada ko'rinadi.

Uchinchidan, mazmun va shaklni bir butun holda, badiiy tarzda ifodalash, yoritish kerak.

„Badiiy“ degani nimaligini bilasizmi? Badiiy degani, sodda qilib aytsam, voqeani, qalamga olinayotgan fikrni bayon qilish emas, balki, aksincha, timsol (obraz) orqali tasvirlash deganidir.

Keling, shu fikrimni bir tarjima she'r misolida tushuntirib beray. Masalan, mart oyida goh yomg'ir yog'adi, goh izg'irin bo'ladi, qorlar erib ketadi, daraxtlar kurtak chiqaradi, degan fikrni badiiy tarzda shunday yozish mumkin:

*Goh izg'irin, goh yomg'ir,  
Goh ko'kda kular ostob.  
Soya joylarga qochar,  
Qorlar bera olmay tob.*

*Daraxtdagi kurtakcha  
O'zin ulg'aygan bilib,  
Yashil tilin ko'rsatar  
Qishni kalaka qilib...*

E'tibor bergen bo'lsangiz, V. Orlovning bu jajji she'rda manzara, jonlantirish, qiyoslash, hatto humor bor. Mana shu holatlar badiiylikni tashkil etgan bu mashqda.

She'r qanday yoziladi, degan savolga javob berishdan oldin, kimlar she'r yoza olishi mumkin degan savolga javob topsak, maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Erkin Vohidov nomini eshitgansiz. Shoирning ko'plab bolalarbop she'rlari maktab darsliklariga kiritilgan.

Shu ustoz shoirimiz bir kitobida shunday voqeani qayd etadilar.

„Alqissa, uchta ayol qishloq yo‘lida gaplashib ketishayotgan ekan. Ularning birinchisi: — Mening o‘g‘lim shifokor bo‘lsa kerak, nega desangiz, hozirdan qaysi kasalga qanday dori kerakligini aytib bera-di, debdi. Ikkinchi ayol: — Mening o‘g‘lim hisobchi bo‘lsa kerak, chunki hozirdan hisob-kitobni yaxshi ko‘radi, debdi. Uchinchi ayol o‘z o‘g‘lini shoir bo‘lishini taxminlabdi, chunki u hozirdan yolg‘on gapirar ekan...“

Fahmlagan bo‘lsangiz, biz shu misol orqali she‘rning asosiy ustuni, ya’ni poydevori nima ekanini topib oldik hisob. Ha, bu o‘sha — qayta-qayta takrorlab kelayotganimiz — badiiy timsollarga asoslangan „yolg‘on“ning o‘zidir. Bu yolg‘onda, shoirimiz yozganlaridek, buyuk ishontirish kuchi mujassam.

She‘rda, tuzajak satrlarimizda inson ko‘nglini yuksakliklarga ko‘taruvchi, ruhini poklovchi, hayotga, Vatanga muhabbatini oshiruvchi timsollarni, tasvirlarni, ya’ni badiiy to‘qimalarni ishontira oladigan darajada samimiyat bilan yoza olsak, yoza bilsak, she‘r shuncha yuksaklikka parvoz qiladi, qadr topadi.

*Olmos mening yuragim,  
Tolmas mening yuragim.  
Kim aytadi she‘rimda  
Qolmas mening yuragim.*

Sevimli bolalar shoiri Qudrat Hikmatning shu to‘rtligini qachon yodimdan o‘tkazsam, qalbim umid va farahga to‘ladi. Shoirning „yolg‘on“iga maftun bo‘laman. Darhaqiqat, ijodkorning yuragi oldida olmos nima degan gap. Shoir qalbining o‘zi olmos-ku axir!

She‘r yozsangiz o‘quvchi qalbini to‘lqinlantiring. Qo‘lingizdan kelsa, uni kuldiring, uddasidan chiqsangiz, yig‘latib, ko‘nglini bo‘shating, yuragiga ezgulik urug‘larini soching.

Onalar haqida ham minglab she‘rlar yaratilgan. She‘rlar bir-biridan ajoyib, birining o‘rnini ikkinchisi egallay olmaydi.

Ona yuragi haqidagi she‘riy rivoyat ana shunday go‘zal asarlarning biridir. Uning tarbiyaviy ahamiyati juda katta.

Rivoyat qilishlaricha, onaning yolg‘iz o‘g‘li bir qizga oshiq bo‘lib qolibdi. Qiz yigitning muhabbatini chin yoki yolg‘on ekanini sinamoqchi bo‘lib, unga „agar meni sevsang, borib onangning yuragini sug‘urib kelasan“, deb shart qo‘yibdi. Oh, sho‘rlik yigit, ikki o‘t

ovorasi! U bir gal qizning oldiga quruq qo'l bilan qaytibdi, ikkinchi safar bug'uning yuragini eltibdi. Uchinchi safar validasining yuragini qo'liga olib chopibdi. Chopa turib, qoqilib yiqilibdi. Ana shunda: giryon ona yuragi tilga kirib:

— *Voy, qattiq tushmadingmi,*

*Bechora bolaginam (!) deb fig'on chekibdi.*

Onaizorning o'z farzandiga bo'lgan mehr-muhabbatini bundan o'tkazib tasvirlashning iloji bormikan?

Payqaganingizdek, she'r yozish boshqalar ijodini o'rganish, fikr yuritish, muqoyosa (solishtirish)dan boshlanadi.

She'r tabiatiga ko'ra har xil: quvnoq, mahzun, hikmatga boy, bir so'z yoki bir voqeа-hodisa asosiga qurilgan bo'lishi ham mumkin.

Ifoda uslubi qanchalar ravon, satrlar samimiy, fikr teran bo'lsa, she'r shuncha salmoq kasb etib, o'quvchi qalbiga muhrlanadi. Qis-qalik, lo'ndalik, ortiqcha tasvir va so'zlardan xolilik asarning husniga husn qo'shami.

Abdulla Oripovning ona haqidagi sakkizligini yodga olaylik. Shoir bu she'rida osmonda bir yulduz uchsa, bir inson taqdiri nihoya topadi, degan aqidaga ijodiy yondashib, purhikmat fikrni, to'g'rirog'i, chorlovnii ilgari suradi. Ona dunyodan o'tsa yulduz nima bo'libdi, hatto osmon qulab tushsa arziydi, deyiladi she'rda. Shoir bu bilan, onangni hayotligida ardoqla, qadriga yet, onadan ayrilish — osmonsiz qolishning baayni o'zi deydi.

E'tibor bergan bo'lsangiz, bu bayonlarning barchasi o'sha, yuqorida takror-takror yodga olganim „yolg'on“ga asoslangan.

Bu yolg'on inson ko'nglini mehrga to'ldiradi, uni hayotga boshqacha ko'z, nigoh bilan qarashga undaydi.

Yanglishmasam, she'rning ta'sir kuchi, joni mana shunda.

## SHE'R YO'LI

 ziz muxlis, siz bilan bir qur bolaligimni eslab, bahonada adabiyot, she'r, qisman shoirlik haqida suhbatlashib oldim. Ko'nglimdan joy olgan ba'zi she'rlarni ilindim. Sizda she'r haqida ozmi-ko'pmi tasavvur, tushuncha hosil bo'lgan bo'lsa kerak. Endi bevosita „she'r“ yozish darsiga o'tsak. „Gapingiz g'alati, she'r degan narsa dabdurustdan to'qib yozilmaydi, balki yurakda tug'iladi deyayotgan edingiz-ku“, deysizmi? Bu mulohazangizda jon bor.

Darhaqiqat, u qalbda qo'shiqday tug'iladi, ilhom bilan qog'oz betiga ko'chadi.

Dastlab she'rning shakl-shamoyili haqida suhbatlashaylik. Chunki shakl-shamoyilini joyiga keltirmay turib she'r yozib bo'lmaydi.

O'zingizga ma'lum, she'riy asarlar satrlardan tashkil topadi. Har bir qatorimiz bir satr, ya'ni bir misra hisoblanadi. To'rtlik yozmoqchi bo'lsak, to'rt satr (misra), sakkizlik yozmoqchi bo'lsak, sakkiz satr (misra) qoralashimiz kerak.

Har bir satr ma'lum bo'g'inga ega bo'ladi. Masalan, birinchi satrimizdagi so'zlar 9 bo'g'inni tashkil etsin. Qofiyalanish bu o'rinda a, b, d, b shaklda bo'la qolsin. Biz yozishni o'rganayotgan „she'r“ shakli „Onajon“ deb atalsin. Qofiya so'zlarimiz *onajon* — a, *jonim* — b, *nuri* — d, *qonim* — b tarzda bo'lsin. Endi bu so'zlarni to'ldirilmagan satrlar shaklida yozamiz. Mana bunday:

.....*onajon*,  
.....*jonim*.  
.....*nuri*,  
.....*qonim*.

Yodingizda bo'lsa, bo'g'inni shartli ravishda 9 ta deb olgan edik. Demak, birinchi satrni to'ldirish uchun yana 6 bo'g'inli (chunki „o-na-jon“ so'zi 3 bo'g'in), 2,3,4-satrlarni to'ldirish uchun esa har bir satrga 7 bo'g'inli, mazmunga mos so'zlarni topib qo'yishimiz kerak bo'ladi. Masalan, to'rtlikni mana bunday to'ldiramiz:

*Onajonim, aziz onajon,*  
*Qurban bo'lsin sizga bu jonim.*  
*Siz o'zingiz ko'zimning nuri,*  
*Siz o'zingiz qalbdagi qonim.*

Mana sizga xomaki „she'r“ning tuzilishi. Qarang, hammasi joyida: qofiya bor. Har bir satr  $4+5=9$  bo'g'in shaklida. Hatto, ma'noni kuchaytirish uchun „Siz o'zingiz“ iborasi atayin takror qo'llandi. „Qalbdagi qonim“, „ko'zimning nuri“ kabi iboralar aynan o'xshatish, sifatlashning o'zi. Go'yo ozgina xulosa yasasak, she'r qiyomiga yetadigandek.

Bu aslida, aldamchi hissiyat. Rosti, bu „to'rtligimiz“da o'quv-

chiga ruhiy ozuqa beradigan, ko'ngilni hayajonlantiradigan topilma — yangilikning o'zi yo'q. Hammasi barchaga ma'lum gaplar. Shuning uchun ham bu satrlar hech kimni qiziqtirmaydi. Endi shu „xomashyo“mizni a, a, b, b va a, a, b shakllariga solib ham qog'oz qoralashimiz mumkin. Deylik, mana bunday:

**1-variant:**

*Onajonim, onajon, (a)  
Bu jonim sizga qurban. (a)  
Ko'zim nuri o'zingiz, (b)  
Qalbim qo'ri so'zingiz. (b)*

**2-variant:**

*Ey aziz onajonim (a)  
Qurbon sizga bu jonim. (a)  
O'zingiz yurak qonim, (a)  
O'zingiz ko'zim nuri. (b)*

Ko'ryapsizmi, she'r texnikasi qanchalar sodda. Kitob, daftар, koptok, ruchka, kaptar va hokazolar haqida ham mana shu tarzda istagancha qog'oz qoralash mumkin. Biroq, ming afsuski, ularning birortasi ham she'r bo'lolmaydi va „xo'sh, nima bo'pti?“ degan haqli savolga „hech nima!“ degan javobni oladi. Gap she'r texnikasini bilishda emas, she'rni yoza olishda, izlashda, izlanishda. Haqiqiy she'rni topish, yozish uchun esa muntazam kitob o'qish, hayotni kuzatish, topqir, izlanuvchan bo'lishga intilish kerak. Chunki qancha ko'p kitob o'qilsa, shuncha ko'p fikr yuritiladi, ko'ngilda mulohaza tug'iladi.

She'r texnikasi haqidagi mulohazalarim bayonini ona mavzusi bilan boshlagan edim, uni shu mavzudagi bir she'r bilan yakunlayman.

Faraz qiling, onangiz gulzorda sayr qilib yuribdi. Ochilgan gullar juda ko'p. Onangiz qadam tashlagani sari ular tebranib, egilib ketmoqda. Chunki qo'li, etagi ularga tegyapti-da. Shu holatni moldovan shoiri Stefan Tudor mana bunday tasvirlaydi:

*Bu dunyoda onamlardek  
Menga aziz inson yo'q,  
Yiroq ketsa ko'zlarimni  
Ololmayman yo'lidan.  
Onam shunday mehribonki,  
Onam shunday muniski,  
Bog'ga kirsa atirgullar  
O'pa boshlar qo'lidan...*

Iloyim, hammamizning onalarimiz hamisha salomat bo'lishsin.

## QALB QO'SHIG'I

**Y**ana she'rning yozilishi haqidagi fikrlarimizni davom ettiramiz. Zero, u haqda qancha so'zlashsak va bahslashsak, shuncha oz. Donishmand shoirimiz Asqad Muxtor yozganidek „uni tanimagan sho'rliklar ayanch“ (li). Omon Matjon e'tirof etganidek, „she'riyat hammaning o'zi, o'zligi...“ Bu haqda soatlab so'zlash mumkin. Muhimi bu emas, muhimi, she'rni yurakdan his qila bilishda, so'zga hurmat bilan yondashishda. Ehtimol, bu gaplarim mag'zini chaqishga qiynalayotgandirsiz? Hechqisi yo'q, o'sib-ulg'aysangiz, umid qila-manki, bu o'gitlar mag'zini albatta chaqasiz.

Ha, yaxshi she'r yozish, yaxshi shoir bo'lish qiyin. Bunga uzoq yillar izlanish, o'qish, uqish, mashaqqatlar chekish hisobiga erishiladi. Shoirlikning murakkab tomonlari ham bor. Garchi bu yumush „hunar“ sanalsa-da, ko'plab shoir va yozuvchilarning asarlarini o'qib chiqishingiz, jahon adabiyoti durdonalari bilan tanishishingiz lozim bo'ladi. Dunyoqarashingizni kengaytirish, adabiy jarayon va adabiy muhitdan uzilib qolmasligingiz uchun qiziqish doirangizga kiruvchi adabiyotlar hamda vaqtli matbuot nashrlarini muntazam ravishda kuzatib borishingizga to'g'ri keladi. (Bu shart.) Shoirlik qaysi bir ma'noda sobitlik degani ham. Shoirlikning yana bir qiyin tomoni, o'zingizni o'zingiz va boshqalarni takrorlamasligingiz kerak. Bir she'ringiz ikkinchi she'ringiz oldida „xom“ligi uchun „yelka“ qisib qolmasligi lozim. Bunday holga tushmay degan shoir she'r ustida tinmay ishlab, mahoratini oshirib boradi.

Deylik, Vatan haqida she'r yozmoqchisiz. Bunga, avvalo, ruhan tayyormisisiz? A. Oripov, E. Vohidov, M. Yusuflar Vatan haqida qanday she'rlar yozishgan? Siz ularga yetkazib nima demoqchisiz? Umuman, aytmoqchi bo'lgan gapingiz o'quvchiga kerakmi? Uni qiziqtiradimi? Yurakni hayajonga sola oladimi? She'r yozishdan oldin shular haqida obdan o'ylab olishingiz kerak. Takror bo'lsa ham aytaman, asar boshidan to oxiriga qadar ko'ngilda tug'ilib, ko'ngilda pishib yetiladi. So'ng qog'ozga bitiladi. Tahrir qilinadi, pardozlanadi, „dam yediriladi“.

Yaqinda Yangiyo'l akademik litseyida „Yosh qalamkashlar“ to'garagi a'zosi, II bosqich talabasi Rayhana Mirzaboboyeva bilan bиргаликда, „she'r“ yozishni mashq qilib, bir nechta misra tuzdik.

Rayhonaning e'tiborini deraza oldidagi tuvakda o'sayotgan gulga qaratib, undan shu gul so'zlay olganda o'zi haqida nima degan bo'lardi, deb so'radim. Rayhona picha o'ylanib, bir necha xil javob berdi. Uning „gul o'zi haqida so'zlaganida menga ham bir kuni yerda o'sish nasib qilarmikan derdi“, degan fikri menga ma'qul bo'ldi va bu fikrni quyidagicha ifodaladik:

### Gul orzusi

<i>Tuvakdagi bir gulning Xayollari sochilgan.</i>	<i>„Yurakdagi anduhim Odamlar bilarmikan?</i>
<i>Bag'rida tog'dek armon, Lekin o'zi ochilgan.</i>	<i>Yerda o'sish menga ham Oh, nasib qilarmikan?..“</i>

E'tibor bergen bo'lsangiz, men misol sifatida keltrayotgan har bir she'rda o'ziga xos fikr, ko'zda tutilgan maqsad bor. Mabodo, qo'lingizga she'r yozish niyatida qalam olsangiz, ko'proq o'ziga xos fikr, mulohazani yoritishga harakat qiling. Mashqingiz shu mavzudagi boshqa she'rlardan qancha ko'p farq qilsa, o'quvchi e'tiborini shuncha ko'p tortadi. Chunki mashq shu jihatni bilan ham o'quvchining hurmatini qozonadi. Bu borada sizga muvaffaqiyat tilayman.

### USTOZLARIM

 stozlarim haqida so'zlasam, qalbim g'urur va faxrga to'ladi. Chunki men o'zimni ustozlarga yolchigan shogirdlardan biri deb bilaman. Ustozlarning yo'l-yo'rig'i, maslahati, qo'llab-quvvatlashlarisiz shubhasiz, she'riyat bo'stoniga qadam qo'ya olmagan bo'lardim.

12 yoshimdan muallim va shoir Obid Rasul va journalist Mahbuha Yusupovani, 15 yoshimdan O'zbekiston xalq shoiri Quddus Muhammadiy, Temur Ubaydullo va Hamza Imonberdiyevni, 24 yoshimdan O'zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjon va Tursunboy Adashboyevni o'zimga ustoz deb bilib, ularning etaklarini tutdim. (Aslida bu taniqli shoirlarning asarlarini juda yosh paytalarimdan o'qiganman.) Noshir, muharrir vazifasida nashriyotda faoliyat yuritishimda O'zbekiston xalq yozuvchisi Tohir Malikning hissasi katta. Men nashriyotda birga xizmat qilgan Muhammad Rahmon, A'zam O'ktam, Chori Avazlarni ham o'zimga ustoz deb bilaman.

Faris Karamov, Bahromboy Meliboyev, Rixsiboy Xoliqov, Bekmirza Azimov kabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchilarimdan bir umr minnatdorman.

Shoir ustozlarimning hayotlari misolida ijodning bir jihatini o'r-gangan bo'lsam, ularning ijod namunalaridan ikkinchi jihatini o'rganib kelyapman.

Sevimli ustozim, O'zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjon bundan o'ttiz yillar muqaddam o'zbek bolalar she'riyatini yangi o'zanga burib, yangi o'zbek milliy bolalar she'riyatiga tamal toshini qo'ydi.

Yaqinda qutlug' 70 yoshni qarshilagan yana bir ustozim — Tursunboy Adashboev menga dunyoda jahon bolalar she'riyati degan tengi yo'q ma'vo borligini ko'rsatib berdi. (Mana chorak asrdirki, bu bo'stonga kirib, dunyo bolalar shoirlari ijodidan bahramand bo'lib kelyapman.)

Adashboev o'z asarlari bilan o'zbek bolalar adabiyotiga sezilarli hissa qo'shib, mustaqilligimizning ilk yillarda mamlakat miqyosida bolalar uchun qalam tebratgan barcha katta-kichik ijodkorning boshini qovushtirib, o'ziga xos adabiy muhit yaratdi va uni shakllantirdi. Zafar Isomiddinov, Sodiqjon Inoyatov, Ma'mur Qahhor, Erpo'lat Baxt, Xudoyberdi Komilov, Qo'zi Ismoil kabi iqtidorli shoirlarni kashf etib, asarlarini nashr ettirdi, xorijiy tillarga o'girtirdi.

Marhum ustozim Hamza Imonberdiyev haqida ham iliq gaplar aytishim mumkin. Bu shoirdan hech kimning she'riyatiga o'xshamay-digan, o'zigagina xos she'rللار qoldi. H. Imonberdiyev o'zbek bolalar she'riyatida mo'jiza yaratgan shoirdir. Shoирning ijodiy merosi bundan buyon ham muxlislar qalbini charog'on eta oladi, deb o'ylayman.

Men o'zimdan kichik yoshdag'i iste'dod g'unchalarining asarlarini ham o'qib boraman, ulardan ilhom, saboq olaman.

Hamqishloqlarim, niyozboshlik shoirlar Iroda Azimova va Salomat Qo'chqorova shular jumlasidandir. Ularning ijodlari bilan tanishib huzur qilaman. Ilhomning yosh, shogird yoki ustoz tanlamasligiga guvoh bo'laman:

### **Botir chuvalchang**

*Yoz kunlarin birida*

*Chaqmoq chaqib osmonda,*

*Yuvib chang-u g'uborni*

*Yomg'ir yog'di o'rmonda.*

*Inlariga berkindi*

*Undan cho'chib hayvonlar.*

*Yashirindi panaga*

*Hatto ayiqpolvonlar.*

*Biror jonzot ko'rinas,  
O'rmon go'yoki jonsiz.*

*Faqat chuvalchang qo'rqmay  
Sayr etar soyabonsiz.*

*Iroda Azimova*

### **Qarg'a xola qag'illar**

*Qarg'a xola va chumchuq  
Qizg'in suhabat qurardi.  
Ulardan sal narida  
Yosh begemot turardi.*

*Qarg'a xola g'iybatlar  
Hayvonlarning hammasin.  
Yomonlar sherdan tortib,  
Hattoki o'z ammasin.*

*So'zlarkan qo'rqa-pisa  
Atrofga qarab olar.  
Birdan sho'x begemotning  
Turganin payqab qolar:*

— *Ikki soatdan beri  
Botinkangni moylaysan.  
Nega kattalar gapin  
Sen zumrasha poylaysan?..*

*Salomat Qo'chqorova*

### **MAHORAT MAKTABI**

1981–1983-yillarda yurtimizdan ancha olis joylarda — Rossiya Federatsiyasining Sankt-Peterburg shahri va viloyatida armiya safida xizmat qilganman. O'sha kezlarda, bir tomoni, harbiy quruvchilarning armiya gazetasida adabiy xodim bo'lib ishlaganimdan, ikkinchi tomoni, til o'rganish, ijodiy mahoratimni oshirish niyatida tarjimaga qo'l urganman. 1982-yilning sentabrida ilk bor Konstantin Sharafanning „Maqtanchoq Yegor“ nomli she'rini tarjima qildim. Mana o'sha she'r:

*Do'stlariga kerilib, maqtanar askar Yegor:  
— Kuchimga kuch qo'shilar burqsitsam „Belomor“.  
Qiziq, gapi rost bo'lsa, mashg'ulotlarda uni  
Nega oyog'i og'rib, to'lib qoladi burni?..*

(Shoirning sigareta chekma, cheksang armiya safiga yaramay qolasan, sog'lig'ingdan ayrilasan degan fikriga e'tibor bering.)

Shu tarjimadan so'ng xizmatim davomida 4 ta hajviyani o'zbekchaga o'girdim. Bu yumush o'zimga yoqib qoldi. Tarjima haqidagi ilk taassurotlarim shu bo'ldi: bu mashg'ulot xuddi o'qituvchi tushuntirib, ishlab ko'rsatgan tenglama yoki masalani mustaqil, o'z holingizcha yechib, javobini topishga o'xsharkan. Mahoratingiz, shoirlik

(yoki yozuvchilik) iqtidoringiz qay darajada ekani shundoq ayon bo'lar ekan.

Meni tarjima sohasiga undagan va yo'llagan Tursunboy Adashboyev bo'ladi.

1987-yilning yozida „Yulduzcha“ nashriyoti (bugungi Cho'lpon nomidagi NMIU) „Do'stlik guldstasi“ nomli to'plamni nashrga tayyorladi. Tursunboy aka tarjimalarim bilan to'plamda qatnashishga taklif qildi.

— Samuil Marshakni o'qiganmisiz? — deb so'rab qoldi shoir kundardan bir kuni.

— Yo'q, — dedim picha iymanib.

— Mixalkovni-chi?

Yana yo'q dedim.

— Korney Chukovskiy, Agniya Barto, Zaxoder, Yunna Mores degan shoirlarni eshitganmisiz?

Uyatdan boshimni egib, yerga kirib ketguday bo'laman.

— Qoyil-e! — dedi Tursunboy aka rostakamiga jahli chiqib. — Bolalar shoiri bo'lmoqchisiz-u, dunyo bolalar shoirlari asarlarini o'qmaysiz! Bu bilan uzoqqa borolmaysiz-ku.

Shu bugundan tanishishni boshlang: sizga Sergey Mixalkovning kitoblarini beraman. Nashrga tayyorlayotgan to'plamimiz Mixalkov she'rlari bilan ochiladi. O'zingizga yoqqan she'rni tarjima qilib keling.

Adashboyev qo'limga kitoblar tutqazdi. Yanglishmasam, o'sha kuni 15-avgust edi. Uyga kelgach, soat tungi 3 gacha Mixalkov kitoblarini o'qib, bir emas, to'rtta she'rni tarjima qildim. Ulardan biri „Do'stlik guldstasi“ to'plamiga kiritildi.

Ana shu voqeadan so'ng turli tildagi bolalar uchun yozilgan she'riy kitoblar, gazetalar, jurnallarga qiziqishim ortib ketdi. Toshkentda nechta kitob do'kon bo'lsa, deyarli bariga kirib, kitob xarid qila boshladim. Tarjima sevimli, zavqli ijodiy ishim bo'lib qoldi.

Ustozim to'g'ri ta'kidlagan ekan, bolalar adabiyoti haqidagi tasavvurlarim kengaydi. Qardosh xalqlarning taniqli bolalar shoirlari bilan adabiy-ijodiy aloqalarni tiklashga kirishdim. 1988–1989-yillarda iste'dodli bolalar shoiri Sergey Maxotin bilan uchrashib, ijodiy aloqani yo'lga qo'ydim. Sergey mening she'rlarimni rus tiliga o'girdi, men uning she'rlarini o'zbekchaga tarjima qildim. Bu jarayon bir necha yil davom etdi.

Jahon bolalar adabiyoti tengi yo‘q xazinadir. Bu xazina bilan tanishish dunyo adabiyoti sari sayohat, yo‘l deganidir. Shu o‘rinda e‘tiboringizga jahon bolalar she’riyatidan ba’zi narmunalarni havola etaman. Ular qaysidir ma’noda sizni bolalar adabiyotining o‘ziga xos tomonlari bilan tanishtiradi.

### Muz

(*Qozoq shoiri  
Norsulton Alimqulovdan*)

*Bir kuni yosh Nurali  
Toyloqboydan so‘radi:  
— Rosti, bilmayman hanuz,  
Nima deganiykin muz?  
— Muz-chi, men senga aytSAM,  
Suvning qaymog‘i, oshnam!*

### Qarchig‘ay

(*Moldovan shoiri  
Grigoriy Viyerudan*)

*Samolyot kabi tinmay,  
Ko‘kda uchar qarchig‘ay.  
Unga qarab jo‘jalar  
Qiyqirishib olishdi:  
— Motorsiz yetib bo‘psan! —  
Deya qochib qolishdi.*

## YOSHLIKDA O‘QIGAN KITOBLARIM

 itob o‘qimay hayot kechirish yoki qo‘lga qalam olib she‘r va hikoyalar qoralash qanchalar kechirib bo‘lmas hol ekaniga o‘zingiz ham ishonch hosil qilayotgandirsiz. Aslida ham shunday. Axir odam ongi, zehni-zakovati bilan dunyodagi barcha jonzotdan ulug‘ va mukarram-da! Bu zehn, bu aqlni charxlab turish uchun esa kitob o‘qish, o‘qilgan kitob mag‘zini chaqib, yurakka jo aylab borish kerak bo‘ladi.

Bolaligimda o‘qigan kitoblarim menga nihoyatda kuchli ta’sir qilgan. Ulardan olgan zavq hamda huzurimni hech qachon unutmayman. Kitob mutolaasi paytidagi tuygan bu zavq-u shavq, hayratni hech narsaga alishmayman. (Shu tobda sizga bir simni aytgim keldi. Kitob shunday sehrli, mo‘jizaviy do‘shti, uni necha marta o‘qisangiz, shuncha marta ta’sirlanasiz. Bu taassurotlar hech qachon bir-biriga o‘xshamaydi.)

„O‘qish kitobi“dagi matnlar, „Zumrad va Qimmat“, „Urto‘q-moq“ kabi xalq ertaklarimiz men o‘qigan birinchi badiiy asarlardir. A. S. Pushkinning „Baliqchi ham baliq haqida ertak“, G. X. Andersenning „Irkit o‘rdakcha“, Raspening „Myunxauzenning boshidan kechirganlari“, J. Rodarining „Jelsomino yolg‘onchilar mamlakatida“,

M. Tvenning „Tom Soyerning boshidan kechirganlari“, X. To‘xtaboyevning „Sariq devni minib“ kabi asarlarini ham bolaligimda sevib o‘qiganman. Ular menda olam-olam taassurot qoldirgan. Bu kitoblarda qalamga olingan voqeа va hodisalar badiiy xayolotimni boyitib, adabiyotga oshno tutinishimga turki bo‘lgan. Kitob mutolaasi, aytishim mumkinki, ijodkor uchun bir umrlik mashg‘ulotdir. X. Po‘latovning „4 sarguzasht“, A. Volkovning Urfin Jyuns haqidagi asari, A. Gaydarning „Graf saroyi xarobalarida“, N. Fozilovning „Saraton“, I. Turgenevning „Mumu“ asarlaridan ham ozmuncha ta’sirlanmaganman. Ularni qayta-qayta o‘qiganman.

Ayni paytda shaxsiy kutubxonamda 500 ga yaqin badiiy kitob bor. Ular qanday kitoblar ekan, deb qiziqayotgandirsiz? Kitoblarimning ko‘pchiliginи Rumiy, A. Navoiy, A. Qodiriy, Cho‘lpon, S. Ahmad, E. Vohidov, A. Oripovdan tortib, Iqbol Mirzogacha bo‘lgan sevimli ijodkorlarimizning asarlari, Tolstoy, Dostoyevskiy, A. Pushkin, Lermontov, R. Tagor, Markes va boshqa chet el nasr ustalarining kitoblari, shuningdek, qomuslar, hadislar, lug‘atlar tashkil etadi.

Men sizning ham shaxsiy kutubxonangiz bo‘lishini juda-juda istayman. Uni ozgina mablag‘ bilan tashkil etish mumkin. Zero, bugungi kunda kitob do‘konlaridan istalgan kitobni topib, xarid qilsa bo‘ladi. Bu ham bo‘lsa mustaqilligimizning sharofati! Ilgarilari hozirgidek sifatli, qalin, yaltiroq muqovali, rangli, oppoq qog‘oz-larga bosilgan kitoblarni faqat tushda ko‘rish mumkin edi, desam ishonavering.

Uyat bo‘lsa ham aytay, o‘ttiz yoshimgacha juda oz nasriy asar o‘qiganman. Chunki men shoir, asosan, she’riy kitoblarni o‘qishi kerak, qolganlari uncha zarur emas degan noto‘g‘ri fikrda bo‘lganman. Mana endi o‘sha kezlarda o‘qilmay qolib ketgan kitoblarni topib o‘qib, ulardan ko‘chirmalar olyapman. Bu mashg‘ulot menga ma’naviy oziqa berishi bilan birga, ijodimga, noshirlik, muharrirlik faoliyatimga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

## SEVIMLI SHOIRLARIM

 archi bolalar uchun she’rlar mashq qilsam ham E. Vohidov, A. Oripov, M. A’zam, O. Matjon, Sh. Rahmon, X. Davron, M. Yusuf, I. Mirzo kabi zamondosh shoirlarimizning ijodini sevib o‘qiyan, muntazam kuzatib kelaman. Kitoblarini qayta-qayta

varaqlayman. Bolalar ijodkorlaridan Z. Diyor, Q. Hikmat, T. Adashboyev, A. Obidjon, H. Imonberdiyev, R. Nazar, H. Rahmat mening eng sevimli shoirlarim hisoblanadi. Bu ijodkorlarning asarlari, avvalo, samimiyligi bilan mehrimni qozongan.

Bolalar adabiyotiga taalluqli shaxsiy kitoblarimning ko‘pini O‘zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjonning asarlari tashkil etadi. Men Anvar aka bilan o‘n yillar davomida Cho‘lpon nashriyotida xizmat qildim.

Anvar akadek o‘z ishi va ijodiga nisbatan sadoqatli va talabchan ijodkorni, ochig‘i, shu paytgacha uchratmadim.

2006-yili shoirning navbatdagi kitobiga muharriplik qilish sharafiga muyassar bo‘ldim. Qo‘lyozmani o‘qib, na biror joyiga nuqta yo vergul qo‘ydim, na biror satrni tahrir qila oldim. Kitob qo‘lyozmasi nashrga nihoyatda pishiq holda, katta mas‘uliyat bilan tayyorlangan edi. Shu kitobda ham sizbop talaygina she’rlar bor. Mana o‘shalar-dan biri:

### **Qarg‘a**

<i>Qarg‘a kirdi</i>	— <i>Menga qara</i>
<i>Kinoga,</i>	<i>Vey, laylak,</i>
<i>O‘xshab</i>	<i>Yeganmisan</i>
<i>Buratinoga.</i>	<i>Hech kaltak,</i>
<i>Hamma joylar</i>	<i>Qani tur-chi</i>
<i>Edi band.</i>	<i>O‘rningdan,</i>
<i>Borib dedi</i>	<i>He, o‘rgildim</i>
<i>Nopisand.</i>	<i>Burningdan!</i>

Ajoyib-a! Anvar Obidjonning boshqa kitoblarida ham shunday qiziq va g‘aroyib she’rlar juda ko‘p.

Taniqli shoir va tarjimon Tursunboy Adashboyev ham so‘zga nihoyatda hurmat va e’tibor bilan yondashadi. Biz bilmagan ko‘plab so‘zlarni she’rlariga kiritib, ular umrini uzaytirishga harakat qiladi. Satrlari ravon, pishiq. Birorta ortiqcha so‘z yoki tafsilotni uchratmaymiz. Manzaralar ko‘z o‘ngimizda manaman deb jonlanadi. Tabiat haqidagi she’rlarida, qushlar sayrog‘i-yu daryolar to‘lqinlarini aniq-tiniq eshitamiz, chamanzorlarda kapalaklar bilan quvalashib yurganday bo‘lamiz go‘yo.

Sevimli shoirlarimning eng kamtari Habib Rahmat bo'ladi. Bu shoirning jajji she'rlarida o'ziga xos topilmalar talaygina. She'rlari, asosan, uchdan o'n yoshgacha bo'lgan bolalarga atalgan. Mana bu she'rni o'qib, mushukcha qanday qilib bosh og'rig'i kasaliga duchor bo'lganini bilib olamiz:

- *Nima bo'ldi, moshginam?*
- *Og'riyapti boshginam.*
- *Ko'p uxlaysan pish, pish...*
- Ana shundan bosh og'rish.*

13 ta so'zda bir olam ma'no yashirin, ham bir olam ma'no „yarq“ etib ko'riniib turibdi. Shoир she'ri orqali vaqtning qadriga yet, dangasa bo'lma, harakat — sog'liq garovi, sen insonsan, kichkina mu-shukchaning ishini qilma, demayaptimi axir?

Yoki A. Obidjonning mana bu sakkiz qator she'rini o'qib ko'raylik:

<i>Ayni kuzak mahali</i>	<i>Xat so'ngida debdi u</i>
<i>Kavush so'rab ikki poy,</i>	<i>Gullar chizib qog'ozga:</i>
<i>Dugonasi o'rdakka</i>	<i>— Mendan salom aytib qo'y,</i>
<i>Xat yozibdi tovuqoy.</i>	<i>Qo'shning dakan xo'rozga.</i>

Bunday she'rlarni o'qib shoirlar „qizim, senga aytaman, kelinim, sen eshit“ qabilida she'rlar yozar ekanlar-da deb o'ylab ham qolasiz.

Chunki bor gapni shundog'icha yozishsa, she'r she'rغا o'xshaydi.

Shu fikrimni bir jajji she'r misolida izohlayman.

Faraz qiling: Shamol esyapti, kuchli yomg'ir yog'yapti. Bog' bo'm-bo'sh, bog'dagi uzun skameyka (kursicha) ham bo'm-bo'sh, Chunki bunday paytda unga hech kim borib o'tirmaydi. Sababi, hammayog'i ho'l bo'ladi.

Shu gaplarim shundayligicha she'riy shaklga solinsa, shubhasiz, u hech kimning e'tiborini qozonmaydi va oddiy so'zlar tizmasiga ay-lanadi. Bu holatni shoira Emma Moshkovskaya quyidagicha tasvirlab, jonlantiradi:

*Yana barcha yo'lakchalardan*  
*Shamol yozni supurar bir-bir.*  
*Bog'chadagi skameykaga*  
*O'iqizdirmas hech kimni yomg'ir.*

Payqagan bo'lsangiz, manzara butunlay boshqacha tusga kirdi... Men Emma Moshkovskaya (rus) bilan bir qatorda Fozil Husnu Dog'larja (turk), De la Mer (ingliz), Moris Karem (fransuz), Angelov (bolgar), Viyeru (moldovan), Marshak, Sef (rus), Shaukat Galiyev (tatar), Yesken Yelubayev (qozoq), Og'ageldi Allanazarov (turkman) kabi shoirlarning she'rлarini ham muntazam ravishda o'qib, kuzatib boraman.

Ha, dunyoda yaxshi shoir ko'p. Faqat ularni qalbda kashf etish kerak. Bu yumush esa har bir kitobxonning o'zida qolgan.

Yusuf Shomansurning „Nishona“ nomli she'ri 1950-yillarda yozilgan, biroq u o'quvchida kuni kecha yozilgandek taassurot qoldiradi:

<i>Bultur ekkan olxo 'rim Nishona qildi.</i>	<i>Aytgancha, yeb qo 'yuvdim Nishonasini.</i>
<i>Mana, siz ham yeb ko'ring, Uch dona qildi.</i>	<i>Danagini ko 'rsatsam, Ishonasizmi?</i>

„Novvotchoy“ va „Katta bo'lgach“ kabi g'aroyib she'rлar ham Yusuf akaning qalbidan sizib chiqqan.

### Katta bo'lgach

*To 'satdan yig 'lab qoldi  
Belanchakda chaqaloq.  
Atrofin o 'rab oldi  
To 'rtta jajji qizaloq.  
— Seni kim urdi, aytgin,  
Mahmudmi, Adibami?  
Uni rosa savaymiz,  
Beramiz adabini!  
Bu savolga chaqaloq  
Yig 'laydi javob bermay.  
Deydi Zebo qaqlidoq:  
— Ovuting qarab turmay!  
Chaqaloq qanday so 'zlar  
Tilchasi kalta bo 'lgach?  
Uni kim urganini  
So 'rarmiz katta bo 'lgach!*

### Novvotchoy

*Yetaklab ukasini  
Ko 'chaga chiqdi Zebo.  
Birdan ikkalasini  
To 'xtatdi Xayri opa.  
  
Maqsudjonne erkalab,  
Lo 'ppi yuzidan o 'pdi.  
So 'ng dedi: — Ukajoning  
Muncha ham shirin bo 'pti?  
  
Zebo der: — Nega shirin  
Siz bilmaysiz hoynahoy.  
Ukajonim kechqurun  
Ichgan edi novvotchoy.*

Bu kabi o'ynoqi, o'quvchi ma'naviyatini boyitadigan she'rlar, o'ylaymanki, hech kimni befarq qoldirmaydi.

Tatar shoiri Shaukat Galiyevning „Yo'lchiroq“ (svetofor) nomli she'riga hali-hanuz qoyil qolaman. Chunki shoir yo'lchiroqni pomidorga mengzab (o'xshatib) she'r yozgan.

Bir qarasangiz, yo'lchiroq bilan pomidor o'rtasida hech qanday o'xshashlik, mushtaraklikning o'zi yo'qday.

Biroq shoir mana shu mushtaraklikni kashf etib she'r yozgan, xayolot, tasavvur olami naqadar kengligini namoyon etgan:

*Yo'lchiroqqa o'xshar pomidor:  
U nim yashil tusga kirgan payt,  
To'xtamasdan o'tib ketaman,  
To'xtamoqdan ne naf, o'zing ayt.*

*Yo'lchiroqqa o'xshar pomidor:  
Unga tez-tez nazar tashlayman.  
Sariq rangga kirishi bilan  
Pishishini kuta boshlayman.*

*Yo'lchiroqqa o'xshar pomidor:  
Poliz sari yo'lni solaman.  
Qizarganin ko'rgan zahoti  
Yurmay taqqa to'xtab qolaman!*

Aziz do'stim, mana shunday go'zal, badiiy ko'lAMDOR asarlarni topib o'qing, mushohada qiling. Nimani qanday yozish mumkinligi haqida o'ylang. Ana shunda siz ham iste'dodli shoir yoki hech bo'l-maganda, shoirtabiat kitobxon bo'lib yetishasiz.

„Tong yulduzi“ gazetasida chop etilgan mana bu to'rtlik kichik-larga ham, kattalarga ham birdek yoqadi:

*Bolalar boshini silamoq kerak,  
Ularga baxt-iqbol tilamoq kerak.  
Yuz, ko'zidan o'pib bermangiz ozor,  
Bolalarni gulday hidlamoq kerak.*

*Mirza Qaynarov*

Shunday she'rlar bolalar gazetalari va jurnallari sahifalarida tez-tez chop etilsa qanday yaxshi!

Ayrim she'rlar hatto gazeta-jurnallar sahifalarida chop etilgan bo'lsa ham she'r ixlosmandlarining dilidan joy ololmaydi. Bu tabiiy hol. Shuning uchun siz she'r yozsangiz-u, uni gazeta-jurnallar chop etmasa, xafa bo'lman. Mabodo, chop etishsa, o'zingizdan ketib qolman. Chunki gazetada she'ri chiqqan va she'r yozayotgan faqat siz emassiz. Bugungi kunda yuzlab, minglab tengdoshlaringiz bu borada o'zlarini sinab ko'rmoqdalar.

Endi sizga ijodga oid maslahatlarimni havola etaman. Ularga amal qilsangiz, albatta she'riyat bo'stonida o'z o'rnningizni topasiz, hech bo'limganda, she'riyat haqida yanada teranroq tushunchaga ega bo'lasiz.

1. Ravon, tushunarli, qisqa yozing.
2. Muhim fikrni muhim emasidan ajrata biling.
3. O'zingizni o'zingiz takrorlamang.
4. Sizgacha yozganlarni ham takrorlamang.
5. Sizni takrorlashlariga befarq bo'lman.
6. Ko'p kitob o'qing, ko'p she'r va qo'shiq yodlang.
7. She'rni she'rsifat va she'rsimon mashqlardan ajrata biling.
8. Adabiy to'garaklarga qatnashing, ustozlar etagidan tuting, biron musiqa asbobida musiqa chalishni o'rganing (bu ham muhim).
9. Mavzu doirangizni kengaytirishga harakat qiling.
10. Mavsumiy mavzularda yozishdan qoching.
11. Ko'nglingizga yoqmagan mashqlaringizdan voz kechishni o'rganing.
12. Samimiyl, oz-u soz yozing.
13. Kutubxonalarga a'zo bo'ling, o'z shaxsiy kutubxonangizni tashkil eting.
14. Vaqt ni qadrlang. O'git va maslahatlarga e'tiborsiz bo'lman.
15. Mashqningizni qaysi kun, oy, yilda yozganingizni qayd etib borishni unutmang.

## REJA HAQIDA

 jodda ko'p narsa rejaga bog'liq. To'g'ri, she'r — asar hech qachon reja asosida yozilmaydi. U kutilmaganda qalbda tug'iladi. Ilhom bilan dunyo yuzini ko'radi. So'ng „pardoz-andoz“ qilinadi. Bu o'rinda reja deb — o'ziga xos hisob-kitob, uzviylik, ma'lum tartibga rioya etish, niyat va matematikani tushunishingizni so'rayman.

Birorta she'r qoralab qolsam, uni kamida 6 oy, yo'qsa 1 yilgacha hech qaysi gazeta yoki jurnalga bermayman. Mashqni har oyda birikki marta ko'zdan kechirib, u yer bu yerini tuzataman. Cho'zilib ketgandek tuyulsa, qisqartirish payida bo'laman. Shunday hollar ham bo'ladiki, satrlarni o'zgartira-o'zgartira she'rning yana o'sha — ilk variantiga qaytib kelaman. Gohida voz kechib, tashlab yubormoqchi bo'lgan she'rimga 2–3 ta o'zgartirish kiritib, uni yangidan „yaxshi“ ko'rib qolaman va „yaxshiyam yirtib, tashlab yubormaganim“, deb quvonaman. Ba'zida yillar davomida asrab-ardoqlab kelgan she'rim kutilmaganda o'zimga yoqmay qoladi va bahridan o'taman.

Reja haqida so'zlayotgan edim. Badiiy asarlar bilan tanishishni to'g'ri yo'lga qo'ying va muntazam ravishda tanishib boring.

Kitoblarni bir emas, kamida besh martadan o'qing. Mutolaa dafтарини юритинг. Асарнинг нимаси юқди, нимаси юқмади, борини ўзиз боринг. Ана шунда адабиёт борасида „ўйда о'tirib ham ko'chani ko'ra oladigan“ bo'lasiz.

Qisqasi, rejali ravishda o'qish-uqishdan tolmang! O'rganishdan charchamang. Bularning bari bir kuni albatta o'z mevasini beradi.

## SO'ZNING TA'MI

 ақинда Yoshlar telekanalida O'zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol kitob mutolaasi haqida so'zlab, kitobning televizor va kompyuterdan farqli jihatlarini kichkintoylarga sodda misollar orqali tushuntirib berdi. Ustoz televizor va kompyuter ishqibozlarini stadionda futbol tomosha qilib o'tirganlarga, kitobsevar bolalarni esa aynan futbol o'ynayotgan o'yinchilarga qiyosladi. „Kitobxon mutolaa jarayonida asar qahramonlari bilan birga yashaydi, yonma-yon yuradi, asar ichiga kirib, so'zning mazasini his etadi“, dedi pirovardida shoirimiz.

Ajabo, so'zning ham mazasi, ta'mi bo'ladimi? U axir non emas-ku... yeysa, yoki choy kabi ichilsa? Hatto so'zni ko'rib ham bo'l-maydi-ku? Shoirimizning bu qiyosi menga manzur bo'ldi. Qiyosni qanday tushunganimni hozir sizga so'zlab beraman.

Faraz qiling, yaqin o'rtog'ingiz sizdan qarzga pul olgan. Siz esa, deylik, pulni onangizning beshik to'yiga atab yig'ib qo'ygan jamg'armasidan hech kimdan so'ramay olgansiz. Do'stingiz pulni qaytarib bera olmayapti. Onangiz esa ertalab bozorga borishi kerak.

Ahvolingiz o'ta chatoq. Qanday qilib bo'lsa ham pulni olib kelish kerak. Demak, maqsadingiz aniq. Do'stingizning uyiga borib nima deysiz? Gapingizni istasangiz, istamasangiz miyada oldindan pishitib olasiz. Siz shubhasiz chorasz ahvolingizni eng ta'sirli, aniq-tiniq so'zlar bilan ifodalaysiz. „Endi onamning ko'ziga qanday qarayman?“ degan gapdan „onam bilsa, boshimda yong'oq chaqadi“ degan gapingiz do'stingizga ancha kuchli ta'sir qiladi.

So'zning „ta'mi“, ta'sir kuchi o'zgarayotganini payqayapsizmi?

She'r degani ham shunday gap. Ko'ngildagi dardni, quvonchni, fikrni o'quvchiga chirolyi, ta'sirchan, „mazali“, „ta'mli“ so'zlar or-qali ifoda etishdir. Bu so'zlarda yolg'on, lof, oshirib yuborish bo'lishi tabiiy. Chunki tashbehlarsiz she'r she'r bo'lmaydi. So'z ta'mini his etish degani, nazarimda shu. „Toshkent“ degan so'zdan „Ona Toshkent“ so'zları ancha ta'sirchan. „Ona Toshkentim“ iborasi yanada shirali. „Toshkentim onam“ iborasi esa undan ham ko'ngilga yaqin, yoqimli.

So'zni did bilan tanlab, ishlata bilsangiz nutqingiz ham, mashqingiz ham ravon, go'zal va ta'sirchan chiqadi. Bu fikrimni quyidagi misoldan uqib olishingiz mumkin.

Deylik, „Tong“ haqida shunday satrlarni to'qidik:

*Quyosh osmonga chiqdi,  
Qushlar sayray boshladi.  
Teraklar tebranishdi,  
Gullar ko'zin yoshladi.*

Mana shu „to'rtlik“ni, ya'ni fikrni ko'ngilga yaqinlashtirish uchun oddiy so'zlarni (shu o'rinni uchun) „ta'mli“ so'zlarga almashtiramiz. Masalan, mana bunday:

*Quyosh kului osmonda  
Qushlar kuylay boshladi.  
Qarsak chaldi teraklar,  
Gullar ko'zin yoshladi.*

E'tibor bergen bo'lsangiz, „mashqimiz“ga ancha rang, shira kirdi. Bu mashqda birgina holat — gullarning nega yig'layotgani aytilmagan. Endi buning sababini „to'qib“, mashqni yakunlab qo'ysak ham bo'ladi. Masalan, mana bunday:

*Gullar ona quyoshning  
Zamindagi bolasi.  
Yig'lashganin boisi,  
Sog'inishgan onasin....*

So'zning mazasi, ta'mini his qilish har kimning o'zida qolgan. Siz qancha ko'p badiiy kitob o'qisangiz, she'r va qo'shiqlar yod olsangiz, obrazli aytganda, so'zlar ummonida suzsangiz, shuncha tez va ko'p so'zlarning „ta'mi“ni his qilasiz, ta'sir kuchini payqaysiz. Ijodda bunday xislat egasi bo'lish katta baxt.

## SHE'RIY SHAKLLAR

1987-yili bolalar shoiri va tarjimon, dramaturg Hamza Imonberdiyevning xonardoniga ilk bor mehmon bo'lib borganman. O'sha kezlarda „Yulduzcha“ nomidagi bolalar nashriyoti (bugungi Cho'lpon nomidagi NMIU) endi tashkil etilib, men shoir bilan birga ishlay boshlagan edim. Birinchi kitobcham chop etiladigan bo'lib, unga muharrirlik qilish Hamza akaga topshirildi. Qo'lyozmamni diqqat bilan ko'zdan kechirib nashrga tayyorlashni rejalashtirgan shoir meni uyiga taklif qildi.

She'rlarni allamahalgacha tahrir qildik, bo'shroq tuyulgan o'rinalarini qayta ishladik, qisqartirdik. Ustozim bor kamchiliklarimni ayamay yuzimga aytdi:

— Kam kitob o'qigansan, she'rlaring inkubatordan chiqqan jo'jalarday bir xil: hammasi 7 yo 9 bo'g'inli. Boshqa vaznlar ham bor-ku. 9 ga 7 yoki 7 ga 5 bo'g'inli qo'shma vaznlar bor, 7+7+7+5 li erkin vaznlar ham bor (bu she'rning har uch qatori 7, to'rtinchi qatori 5 bo'g'indan iborat degani).

Bir-ikkita she'rning shaklini o'zgartirgan edik, satrlar ancha ravn, jarangdor bo'lib qoldi.

Navbat qofiyalarimga keldi. Ism qofiyalarim ko'p ekan, bu ham Hamza akamning nazaridan chetda qolmadni:

— Sen bu hunaringni tashla, yozsang, tuzuk yoz. Shu ham ishmi, qo'zichoq — Uzoq, xo'roz — O'roz, gap — Rajab...

Bir xilda yozaversang, o'quvchini o'zingdan bezdirib qo'yasan — she'ringni o'qimay qo'yadi.

— Men ism ko'proq yozilsa, bolalar qiziqib o'qishadi degandimda, — dedim o'zimni oqlab.

Ijod borasidagi suhbatimiz aylanib-aylanib she'riy shakllarga kelib taqaldi.

— Bizgacha hamma shakllar kashf etilib bo'lingan shekilli. Mumtoz adabiyotimizning o'zida qancha, — degandi o'shanda Hamza akam negadir bir so'lish olib. — O'zim ham shu narsada oqsayman. Ko'p o'qishimiz kerak, juda ko'p.

Yarim kechagacha davom etgan gurungimiz menda unutilmas taassurot qoldirdi. Ijodga yanada mas'uliyat bilan yondashishim kerakligi ayonlashdi. Shundan so'ng she'rlarimning mazmuniga mos shakllar izlay boshladim.

Bir kuni xayolimga bolalikda o'ynagan o'yinlarimizdan biri lop etib kelib qoldi: bir sinfdoshim partamga uchta katakcha chizilgan varaqni qo'yib, katakchalar ichiga „Sobir“ deb yozib berishimni so'ragandi. „Sobir“ so'zi beshta harfdan iborat, katakchalar uchta bo'lsa... Buning esi joyidami, dedim ichimda. Epini qila olmagandim,

o'zi katakchalarni 

s	o	1
---	---	---

 ko'rinishida to'ldirdi.

Qoyil deb yubordim buni ko'rib... Keyinchalik, 1972-yili polyak shoirlarining rus tilida nashr etilgan she'rlarini o'qib, shu ko'rinishdagi bir-ikkita satrni uchratdim va raqamli she'rlar yozishga kirishdim. Ancha-muncha so'zlarimizda raqam elementi bor ekan: masalan, to'rtko'z, Oltiariq, Oltinoy, beshik va hokazo. Bu kabi so'zlearning bari shu turkumdagи she'rlarimdan joy oldi.

Bir shakl ikkinchi shaklni izlashimga turtki bo'ldi. Bir kuni Tohir Qahhorning turkum she'rlarini o'qib qoldim. Sarlavhalar she'rlarning oxirida qo'yilgan edi. Turkumni shoir *Ost sarlavhali she'rlar* deb nomlagandi.

Bundan ilhom oldim. O'ylab ko'rsam, ba'zi so'zlarimiz chapdan o'ngga o'qisak bir ma'noni, o'ngdan chapga o'qisak, ikkinchi ma'noni berar ekan.

Masalan, „kalit“ so'zini teskarisiga „tilak“ deb o'qiymiz. Ana shunday so'zlar *teskari sarlavhali she'rlar* yozishimga turtki bo'ldi.

Keyinroq „Xato she'rlar“ (bunda she'r qiziqarli chiqishi uchun so'z atayin xato, teskari ma'noda qo'llaniladi), „Rasmdan she'riy saboqlar“ (satrlar bilan birga rasm elementlaridan foydalaniladi), „Ismli she'rlar“, „Adabiy topishmoqlar“ kabi turkumlarni yozdim.

Shaklni-ku topish mumkin. Biroq o'sha shaklga mos mazmunni she'rga solish ancha murakkab. Qo'l o'rganguncha ko'p ter to'kishga to'g'ri keldi. Ba'zida topgan shaklingga mos she'rni yillar davomida ham yozolmaysan.

Men, masalan, bir hafta ichida „*Qisqartma topishmoqlar*“ yozdim. Biroq bitta „*Qo'shaloq she'r*“ yozishga qariyb uch yil unnadim. Shunday mashqlarimdan birini e'tiboringizga havola etaman. U sizga yoqsa, izlanishlarim bekor ketmagan bo'ladi.

### Uch o'g'il va chaqaloq

(*Qo'shaloq she'r*)

*OYIM menga jilmayib dedi:*

— *Uyimizga KELSA gar mehmon,*

*Kirmasidan turib ESHIKDAN*

*Huzuriga chopib chiq shodon.*

*Quloq solib UKAM bu gapga*

*KULAR fikrin aylab jamuljam:*

— *Salom bersin unda BESHIKDAN*

*Bizga o'xshab chaqaloq Nor ham!*

Shoir do'stlarimda ham shu kabi ijodiy tajribalar anchagina. Dilshod Rajab, Yahyo Tog'a, Faxriyor, Isroil Subhonlar ijodida bunday tajribalarni ko'p uchratganman.

Isroil Subhonning mana bu she'rini xoh eniga o'qing, xoh bo'yiga o'qing — bir xil chiqadi:

Yuzing	goho	oy	misoli
Goho	mutlaq	qiyosi	yo'q
Oy	qiyosi	ko'p	adosi
Misoli	yo'q	adosi	yo'q

Ha, she'r haqiqatan mo'jiza! Bu mo'jizani his etish, ko'rish baxti barchamizga nasib etsin.

## IJODKOR DO'STLARIM

**B**olalar she'riyati deb nomlanuvchi muattar bo'stonga sayoha-timiz yana ham mazmunli, qiziqarli va yodda qolarli o'tishi uchun sizni ijodkor do'stlarimning qalb „qozoni“da pishgan ayrim she'rlari bilan yaqindan tanishtiraman. Bu she'rlarning aksariyati samimiyligi, kitobiylikdan xoliligi va o'ziga xosligi bilan meni maftun etgan. Ular bilan tanishsangiz, mazmun bilan shaklning bir-biriga nihoyatda mosligiga to'la ishonch hosil qilasiz.

Qo'llimda gurlanlik iste'dodli bolalar shoiri Sodiqjon Inoyatovning ikki kitobchasi. Ulardan biri „Omon bo'lsa do'stlarim“, ikkinchisi „Yorug‘ kunlar“ deb ataladi. Birinchi kitobcha 1995-yili shoir Hamza Imonberdiyev, ikkinchi kitobcha 1998-yili mening muharrir-ligimda nashrdan chiqqan.

She'rni hikoya tarzida so'zlab berish odobdan sanalmasa-da, ma'lumot uchun Sodiqjon akaning nimalar haqida yozganini aytib o'taman. Shoир qishning so'nggi kunlari haqidagi she'rda pana-pana joylarda maysalarning quyoshni sog'inib bosh ko'tarishayotganini, osmonda oftobning sasi — ya'ni nurlari jaranglayotganini chizadi. Manzara juda chiroyli! Yana bir she'rda hasharga borgan bolalarning bog'da yer chopib, mehnat qilish o'rniga, dovuchcha terishga tushib ketishgani, tushlik paytida, „ovqatga kelinglar-ov“ — deb chaqirishganda, uyalib qolganliklari hajvga olingan.

Lola ismli qizni ko'rganda she'r qahramonining akasi nima uchun uni „siz“lab, duduqlanib qolishi sababini shu kitobcha qo'lingizga tushsa, „Qo'shni qiz“ sarlavhali she'mi o'qib bilib olasiz.

O'zingizga ma'lum, hayot faqat o'yin-kulgi va tomoshadan iborat emas. Ming afsuski, inson hayoti davomida yo'qotishlar ham bo'lib turadi. „Yo'qotish“ sarlavhali she'rda shoир onasi olamdan o'tgan bolakaylarning ruhiy holatlarini ko'zida yosh bilan tasvirlaydi: Kun, hafta o'tgani sari bolalar onalarini sog'inishadi, bog'chaga boradigan bolakay esa har sahar akasiga: — Men bog'chadan qaytgunimcha oyim uyimizga kelsin, deyishini qo'ymaydi.

Bunday ta'sirchan, tarbiyaviy ahamiyati katta she'rlar shoirning „Yorug‘ kunlar“ nomli kitobchasida ham talaygina.

Farg'onalik ijodkor Ma'mur Qahhomming ham shu kungacha ikkita

kitobchasi chop etilgan. Bular „Kulib tursinlar doim“ (1987-yilda, Habib Rahmat bilan birgalikda) va „Sehrli so‘z“ (1993-yilda).

Shoirning birinchi kitobchasiga, asosan, parranda va darrandalarning hayotidan hikoya qiluvchi jajji va quvnoq she’rlar kiritilgan. Burgut, baliqcha, zebra, mingoyoq, tuyaqush, xo‘roz, kakku, echki, begemot, sirk sherlari haqidagi she’rlarni, Bo‘ri, Tulki, Fil, Jirafa, Ayiq, Quyon va Kenguruning antiqa futbol o‘ynagani haqidagi alohida quvnoq hangomani o‘qisangiz, ular bir umriga yodingizda qolishiga ishonaman.

Ma’mur Qahhor bir she’rida tuyu o’zini tog‘ga qarindosh deb hisoblaganini (o’rkachi tog‘ga o‘xhash-da), yana bir she’rida quyon o’z soyasidan cho‘chib, tinmasdan yugurganini, boshqa bir mashqida kapalak har bitta gul bilan so‘zlashib, ko‘ngliga yaqin do‘st izlaganini yozadi.

Kuchuk bolalari bilan qanday voqealro‘y bergenini ushbu she’rni o‘qib bilib olasiz. Qanday xulosa chiqarish o‘zingizga havola.

### Kuchuk bolalari

*Bilasizmi,*

*Bilasizmi.*

*Kuchugimiz bolaladi.*

*Siz tasavvur qilasizmi,*

*Qanday shirin bolalari.*

*Akam Tolib,*

*Qopga solib,*

— Cho‘ktiraman soyga, — dedi.

— Nega kerak shuncha kuchuk

*Katalakdek joyga, — dedi.*

*Biz qo‘ymadik,*

*Biz yig‘ladik.*

*Aytib berdik buvimizga.*

„*Qopni qayga berkitdingiz?* —

*O‘grayadi Tolib bizga.*

*Biz aytamiz*

*Bitta-bitta*

*Olib ketsin do‘silar bari.*

*Cho‘ktirmaq-chun tug‘ilmagan*

*Axir kuchuk bolalari...*

Ma’mur Qahhorning „Sehrli so‘z“ nomli ikkinchi kitobchasi sheri ham o‘qishli, qiziqarli, qisqa va o‘ynoqi. (Kezi kelganda aytib o‘tay, bu kitobchalarining dunyoga kelishida, marhum shoir Hamza Imonberdiyevning mehnati katta bo‘lgan). Eng samimi sheri shubhasiz „Oqshomda“dir. She’rni o‘qib uka va singillaringizga mehringiz yanada tovlanib ketsa, bilingki, bu shoirning so‘zi, haqiqatan ham „sehrli“ ekanida.

## Oqshomda

*Oqshom chog'i ayvonda  
Yotardik, singlim Dildor  
So'rab qoldi: „Osmonda  
Ayting, necha yulduz bor?“  
  
So'ng javobim kutmayoq  
Boshladi u sanashni.*

*Yigirmaga yetmayoq  
Uch-to'rni bora adashdi.  
  
„Uf“ dedi-yu burdi lab  
Uyqu bosdi, menimcha.  
— Sanarman,— deb ertalab  
Uxlab qoldi singilcham.*

Aziz bolalar! Men sizlarga yana Dilshod Rajab, Ne'mat Dushayev, Yusuf Miryusufzoda, Qo'zi Ismoil, Zafar Isomiddinov, Xudoyberdi Komilov, Kavsar Turdiyeva, Muqimjon Qodirov va Rustam Nazarlarning kitobchalariga kirgan asarlar haqida ham so'zlab bersam degandim.

Shunday qilsam, she'riyat olamiga sayohatimiz cho'zilib ketar ekan. Buning ustiga sizning dars tayyorlashga ajratadigan vaqtingizni ham olar ekanman.

Yaxshisi, bu shoirlarning „Otamning bog'i“, „Kim zo'r“, „Uyimizda quyosh bor“, „Balli, bolakay“, „Qush bo'lib uchgan ona“, „Tort polvon“, „Yerdagi quyosh“ kabi jajji, rang-barang kitobchalarini maktab kutubxonasidan olib, darsdan bo'sh vaqtlariningizda diqqat bilan o'qib chiqing. Ishonchim komilki, bir olam zavq olasiz.

Ular sizning bugungi o'zbek bolalar she'riyati haqidagi tasavvur va tushunchalariningizni butunlay o'zgartirib, she'r, adabiyotga bo'lgan havas va ishtiyoqingizni yanada alangalatib yuboradi.

Mana, o'shanday kitobchalardan olingen ayrim namunalar:

### Birinchi sinfda

*Qanday joyga keldim, voh  
Aqlim bovar qilmaydi.  
Darsga kirgan muallim  
Hech narsani bilmaydi.*

*Doskaga tortib chiziq,  
Halqa bilan o'radi.  
Keyin tushunmay bizdan  
— Bu nima? — deb so'radi.*

*Nurillo Oston*

### Suzishni o'rganay

*To'lib oqqan anhorga  
Tushib ketdi paqirim.*

*Shosha-pisha yordamga  
Jo'rabeckni chaqirdim.  
Yeng shimarib dedi u:  
— Qotiramiz bu ishni.  
Faqat shoshma, men oldin  
O'rganayin suzishni.*

*Erpo'lat Baxt*

### **Telefonda**

*— Allo-allo, hov Dildor!  
— Men Dildormas, Zulkumor!  
— Tanimay turibman men,  
Qaysi Zulkumorsan sen?  
— Menmi?  
Anov Zulkumor,  
Katta qo'g'irchog'i bor!*

*Muqimjon Qodirov*

### **O'g'il bola**

*— O'ynaylik „xola-xola“ —  
Dedi Rahmonga Lola.  
Rahmonning shu turishda  
Lab-dahani burishdi.  
Xafa bo'lgan edi u,  
Qovoq uyib dedi u.  
— Qanday bo'lay  
„xola“ man,  
Axir o'g'il bolaman!*

*Yusuf Miryusufzoda*

### **Dangasa**

*— Yo'qolib qoldi qo'zim,  
Topolmadim bir o'zim.  
Bekor bo'lsang jon,  
Gulnor,*

Ne'mat Dushayev

## Momaqaldoqqalar

*Gumburlaysan buncha ham  
Nima kelar qo 'lingdan?  
Po 'pisangdan qo 'rqmaymiz,  
O't-e, golma yo 'lingdan.*

*Barcha shovqin-suroning  
Darrov o'tib ketadi.  
Kuching faqat bulutni  
Yig'latishga yetadi!*

Oo'zi Ismoil

## JONIMNING SURATLARI

### *(Adabiy qaydlar)*

太

Ijodkor olimga ham, g'avvosga ham, zargarga ham o'xshaydi. U shu ma'noda olimki, yuragini taniganidan boshlab umr bo'yি o'z qalbini tadbiq etadi, o'rganadi. Shu ma'noda g'avvoski, qalbining tub-tublarida yashirinib yotgan fikr va tuyg'u „dur“larini qog'oz yuziga olib chiqadi va olib chiqqan onidan boshlab so'z tarashlovchi usta — so'z zargariga aylanadi.

\* \* \*

Shoir va she'riyatni olam ichra olam deb ham atash mumkin.

太

Ijodkorning u matbuotda u asarim, bu vaqtli matbuot nashrida bu asarim chop etilib turibdi, deb o'zini ovutishi har qalay aqdan emas. Qalamkash ko'proq izlanib, ko'proq ijod bilan mashg'ul bo'lmosi

lozim. Chop ettirishga gazeta ham, jurnal ham, vaqt ham istagancha topiladi.

\* \* \*

Ba'zi adiblar shunday asarlar yaratadilarki, o'qimay g'ofil qolganidan uyalib ketasan.

\* \* \*

Tog'dek mustahkam FIKR ham zamon zayli-yu vaqt mayli tufayli shamdek erib, kuchdan qoladi. Fursat, ya'ni oliy hakam — VAQT hatto mahoratga ham soya sola oladi. Nazarimda ijodda, avvalo, IFODA — OVOZ o'ziga xos bo'lishi kerak. Mana shu narsa asarning jon ozig'i bo'lsa ehtimol?

\* \* \*

„Xabar“ degan so'z bor, „bo'y“ degan so'z bor. Shu ikki so'zni yanada jozibali, hayratli ko'rinishga keltirish mumkin. Qanday qilib deysizmi? Buning yo'li juda oson. Siz bu so'zlarni „xushxabar“, „xushbo'y“ deb o'qisangiz bas, manzara butunlay boshqacha tus oladi. Shoirlilik ham shu — so'zga, so'z orqali fikrga jilva berishdir.

\* \* \*

Miltiq otilsa-yu o'q nishonga borib tegmasa, ayb miltiqda emas, otuvchida bo'ladi. Shuningdek, kitob yozilsa-yu o'quvchi ko'nglidan joy ola bilmasa, bunga o'quvchi emas, aksincha, muallif sababchi bo'ladi.

\* \* \*

O'zbek bolalar she'riyati nazarimda ochilayotgan qo'riqqa o'xshaydi. (Bosib o'tilgan bir-bir yarim asr tarix oldida nima degan gap.) Quddus Muhammadiy, Ilyos Muslim, Tolib Yo'Idosh, Po'lat Mo'min kabi otaxon ijodkorlarimiz o'z asarlari misolida qo'riqning qay tomonda ekanini „ko'rsatib“ bergan bo'lsalar, Sulton Jo'ra, Zafar Diyor, Qudrat Hikmatlar o'sha yerkarta ilk bor urug' qadagan ijodkorlar sirasiga kiradilar. Anvar Obidjon, Tursunboy Adashboyev kabi shoirlar bu yerdan qanday hosil olish lozimligini ko'rsatib bergenlardandir.

\* \* \*

**She'rlarim ko'ngil atalmish bog'imning mevalaridir.**

\* \* \*

**She'rning asosi fikr. Uni shoirning yuragiga Yaratgan soladi.  
Niyat, yozish shoirdandir.**

\* \* \*

**Yaxshi shoir asalariga o'xshaydi. Asalari bolni millionlab gul-g'unchalardan to'plaganidek, shoir ham o'nlab, yuzlab asarlarni o'qib, hayotni o'rganib, kuzatib asar yaratadi.**

\* \* \*

**Bolalar shoirlarining aytadigan so'zining mazasi kamida sutning mazasiga, she'rining „kaloriyasi“ qaymoqning kaloriyasiga teng bo'lishi kerak.**

\* \* \*

**Yozib bir quvonaman, yozganlarimni yirtib, tashlab yuborib, bir quvonaman. Shoirlilik degani balki shudir.**

\* \* \*

**Bolalar she'riyatidan kattalar she'riyatining isi kelib turishini tabriklash kerak.**

\* \* \*

**Shoirlilik ba'zan yozmaslikka ham o'xshab ketadi.**

\* \* \*

**Adabiyotni quyoshga, shoir va yozuvchilarni uning atrofida aylanuvchi sayyoralarga o'xshataman. Ular safida bolalar adiblarining tezroq ko'payishini istayman.**

\* \* \*

**Shoir o'z ko'nglini odamlar diliga so'z rishtasi orqali bog'lovchi insondir.**

\* \* \*

**Yaxshi kitob ruhni poklaydigan malhamdir.**

\* \* \*

Ajoyib asarlar ajoyib ijodkorlarning umrlari hisobiga dunyo yuzini ko'radi. Bunday asarlarni asrash, avaylash va qadrlash kerak. Ijodkorini ham.

\* \* \*

Gugurt cho'pining alanga olishiga bitta uchqun kifoya qilganidek, bittagina yaxshi asar ham yaxshi kitoblar yozilishi uchun sabab bo'la oladi.

\* \* \*

**Shoirni shoir tanisa yaxshi, el tanisa undan ham soz!**

\* \* \*

Dam yemagan oshni yeb bo'l'maganidek, tuzukkina qalami bor ijodkorlarning asarlarini shundog'icha — tahrirsiz chop etish mumkin emas.

\* \* \*

Yaxshi kitobni bellashuvni g'alaba bilan yakunlagan futbol jamoasiga o'xshataman. O'yin garchi g'alaba bilan tugagan bo'lsa-da, to'qson daqiqaning ma'lum soniyalarida o'yinchilar bir-birlarini tu-shunmay, sust, qo'pol, zerikarli o'yin ko'rsatganlari singari kitobda ham zavqsiz, juz'iy kamchiliklar mavjud bo'lgan o'rinalar uchrashi tabiiy. Bu kamchiliklar muallifning mahorati ortgani sari bartaraf bo'lib boraveradi.

\* \* \*

**Quvnoq asarning umri uzoq bo'ladi. Chunki quvnoqlik abadiydir.**

\* \* \*

**She'rlarim — ruhimning islari, jonimning suvratlaridir.**

\* \* \*

**Asarni tahrir qilish uchun ham ilhom kerak.**

\* \* \*

Eskirgan asar sovigan ovqatga o'xshaydi.

\* \* \*

Qozonga tushgan masalliq dog' bo'lgan yog'da „cho'milgan“idek, shoirning yozajak satrlari ham hissiyot atalmish yog'ga bir-bir shimidrib olinishi shart. O'shanda o'quvchi asar ta'mini uzoq vaqt tuyib, sog'inib yuradi.

\* \* \*

Bolalar shoirlarining asarlari bolalardek emas, Bolalikdek bo'lishi kerak. Bolalar o'sadilar, ulg'ayadilar. Bolalik esa qarish nimaligini bilmaydi.

\* \* \*

O'zini hurmat qiladigan, adabiyotdagi o'rni uchun qayg'uradigan har bir ijodkor badiiy va badiiyatga doir asarlarni ko'zdan kechirib o'z vaqtida „hisob-kitob“ ishlarini o'tkazib borgani ma'qul.

\* \* \*

Ijod olami sirli olam. Ijod sirlaridan biri shuki, qachon, qay paytda, qanday janr, qay mavzuda qanday asar yozishingni umuman bilmaysan. Yuraging bo'lsa, Umid bilan uraveradi...

\* \* \*

Adabiyot shuhrat maydoni emas, adabiyot **TASKIN** bog'idir.

\* \* \*

Yozish boshqa, yondashish boshqa.

\* \* \*

Shunday badiiy kitoblar ham bo'ladiki, yigirma yilda besh varag'ini o'qib chiqishga ham na fursating bo'ladi, na qunting.

\* \* \*

Odatda, yangi damlangan choy dam yeb, shamasи choynak tagiga cho'kishi uchun bir muddat tin oldirib qo'yiladi. Yangi yozilgan asar ham choy singari picha „tindirilsa“ hech qachon ziyon ko'rilmaydi.

\* \* \*

She'r chaqaloqqa ham o'xshaydi. Chaqaloqning oyoqqa turib, tili chiqishiga ma'lum muddat kerak bo'lgani kabi she'r ham o'quvchi e'tiboriga havola etilguniga qadar pardozlanishi, tahrir qilinib, imkon qadar qisqartirilishi, his va aql mezonida qayta-qayta o'lchab ko'rilishi kerak.

\* \* \*

Odamlarni kuldirish, „qitiq pati“ga tegish qiziqchilarining ishi. Shoirlarning yumushlari KO'NGILLARNI UYG'OTISHdir!

\* \* \*

Ijodkorlarni oshpazlarga ham qiyos qilish mumkin. Oshpazlar taomlarini qozonda tayyorlasalar, ijodkorlar o'z asarlarini qalb „qozonlari“da pishiradilar.

\* \* \*

Badiiy kitoblardan matn ko'chirish, ulardagi g'oya, mazmun, shakl va boshqa o'ziga xos unsurlarni yozib borish go'yo sutning yuzidan qaymog'ini suzib olib tanovul etishga, hozirlab qo'yishga o'xshaydi.

\* \* \*

XX asr o'zbek she'riyatini diqqat bilan nazardan o'tkazsak, uning asr boshidan asr adog'i sari tobora tuyg'ulashib borganining guvohi bo'lamiz.

\* \* \*

Boshqa biron-bir asarga almashtirishga ko'z qiymaydigan, doimo mehr va sog'inch bilan yodga olinadigan kitoblarni yaxshi kitoblar degim keladi.

\* \* \*

Ba'zi qalam ahllarining o'z ijodlariga o'zlari beradigan baholari samokat minib yurgan kichkintoylarning katta ko'chada mototsiklini boshqarib boryapmiz, degan xom xayollariga o'xshaydi.

\* \* \*

Yozishni bilgan shoir emas, nimani, qanday yozishni bilgan shoir.

\* \* \*

She'r degani nima? Bu savolga ehtimol umrim bo'yи aniq javobni topa olmasman.

Ammo uning nimadan yaralishini bilaman. Hech shubha yo'qki, u Mehrdan BUNYOD bo'ladi.

\* \* \*

She'rning xasta qo'shiq bo'lgandan ko'ra, umri uzoq bo'lgani yaxshi.

\* \* \*

Ijodkorning umriga umr, yoshiga yosh qo'shilgan sari qalbidan sizib chiquvchi satrlari bamisolni bo'yga yetgan qizdek oqi oq, qizili qizilga ajralib (yetilib), dunyo yuzini ko'raverar ekan.

\* \* \*

Ezgulikka yo'g'rilgan, mantiqqa asoslangan, ko'ngil ishongan „yolg'on“ — tashbehlarning yozma yig'indisi Adabiyotdir.

\* \* \*

Oz-u soz yozish kerak.

\* \* \*

*She'r nima? She'r — hayrat,  
She'r nima? She'r — ishq.  
She'r — sehr, mo'jiza,  
She'r — orzu, hushdir.  
Ko'ngil ayvonida patin taragan  
Jannat islardan yaralgan qushdir!*

\* \* \*

Asarlar, fikrimcha, o'ziga xos iste'dodli shaxslarning borliq va yo'qlik — ikki dunyo va dunyo orasi haqidagi shaxsiy qarashlari, nuqtayi nazarlari, fikr-mulohazalari, muqoyasalarining betakror tal-qin va uslubdagi, tuyg'ularga yo'g'rilgan badiiy yozma bayonlaridir.

\* \* \*

She'r mening uchun yetdim deganda yetilmaydigan, tutdim deganda tutilmaydigan qo'l.

\* \* \*

O'qish kerak, muntazam o'qish kerak, ana shunda shoir qoni qaynab, oqib turadi. Mutolaani to'xtatish men uchun bir joyda muzga o'xshab qotib qolish demak.

\* \* \*

Tomoshabin ko'zboytag'ichning hunarlaridan qanchalar hayratga tushsa, o'quvchi ham shoir ijodidan shunchalar hayratlanishi lozim. O'sha hayratni yuzaga keltira oladigan qalamkashgina haqiqiy ijodkor hisoblanadi.

\* \* \*

Kitob mutolaa qilish suratga tushishga, undan ko'chirmalar olish esa o'sha suratni qo'lga kiritishga o'xshaydi.

\* \* \*

So'z kichkina bo'lsa ham soyasi katta. So'zning soyasi hatto butun bir kitobga tushishi mumkin.

\* \* \*

Yaxshi shoirlar ham vafot etadilar, biroq yaxshi kitoblar hech qachon o'lim nimaligini bilmaydi.

\* \* \*

Shunday she'rlar yozish kerakki, ular boshqa shoirlarning asarlari oldida „yelka qisib“ qolmasin.

\* \* \*

Peshanalariga kelajakning buyuk shoirlari bo'lishdek baxt bitgan yosh do'stlarim, ijodimizni davr, zamon ko'zi bilan o'qinglar, kuza-tinglar. Ana shunda manzillaringiz bexatar bo'ladi...

\* \* \*

Hazrat Navoiy va Bobur tavalludiga bag'ishlangan tadbirda qat-nashdim. Ma'ruzalarni 2 soatcha eshitdim. Xulosam shu bo'ldiki, 45 yoshga kirib ham na Navoiydan, na-da Boburdan hech narsa bilmas ekanman! Qayta-qayta o'qib uqishim kerak ekan bu allomalarning asarlarini. Shunda... yozganlarim ko'zimga g'aribdan g'arib ko'rindi. Nafaqat yozganlarim, o'zim ham...

\* \* \*

Ba'zi asarlarni o'qib kuchingga kuch qo'shilganini sezasan, ba'zilarini o'qib madoring quriydi.

\* \* \*

Shoirlikka o'qitadigan maktab yo'q, biroq o'qib-o'rganishga ar-zigulik saboqlar ko'p.

\* \* \*

Ijodkor nimaga ko'proq e'tibor berishi kerak degan savolga 35 yoshimda shunday javob bergan ekanman: „Menimcha, u, avvalo, so'zni his etishi kerak. So'zni his etish qalamkash zimmasiga mas'u-liyat yuklaydi. Mas'uliyat uni o'z mahoratini oshirishga undaydi. O'qish, uqish, o'rganish, xulosa chiqarish, fikr yuritish — izlanish, demak“.

\* \* \*

...Ba'zilar hatto qahraton qishda ham sochini qirtishlatib oldirib yuradilar. Ijodkorlar ham o'z kasb-korlariga „yopishib“ olmasdan, boshqa tizim, boshqa sohalarda ham vaqt-vaqt bilan xizmat qilsalar, qishda soch oldirgan odamlar kabi „issiq-sovuq“ ni yaxshi his etadigan bo'ladilar. Tog' uzoqdan tiniq ko'rinati deganlaridek, boshqa kasb, boshqa hunar, boshqa soha kishilariga ham adabiyot, ijod ahlining ijodi, turish-turmushi aniq ko'rinati. Ular fikriga suyangan ijodkorning o'ziga o'zi beradigan bahosi haqiqatga yaqinroq bo'ladi.

## Go'yo

*U kitobga qarayman, bu kitobga qarayman,  
Allanelar yangidek ko'rina boshlar ko'zga.  
Men shu taxlit go'yoki, dam, hordiq olgan bo'lib,  
O'zimni botirib... yo'q, bulay boshlayman So'zga!*


Yaratgan so'z „tog'lari“ emas, asarlar qoldirishni nasib etsa qani edi...

*Dunyoda shoirdan buyuk sayyoh yo'q,  
Ko'ngil ko'chalarin kezib tinmas u...*

## She'rlarim

*Jonimga jondek aziz,  
Kattami, kichik bari —  
Ular mening sevinchim —  
Ko'nglimning bayramlari!*

## She'rning „tuzilishi“



## E'tirof

*She'r — ko'ngil darmoni, yurak malhami,  
Tobli-yu tobsizga birdayin kerak.*

*Ko'zingga qancha ko'p surkasang uni,  
Osmonda shuncha ko'p sayr etar Yurak!*

## Fikrlar

*Ming xil qushlar uchib kelarlar,  
Ming xil qushlar uchib ketarlar.  
Ming xil qushlar — ming xil fikrlar  
Mening mushtdek, toshdek boshimga!*

\* \* \*

Ikkita dastxat men uchun nihoyatda qadrli.

Biri Anvar Obidjonning dastxati, ikkinchisi Tursunboy Adash-boyevning. Ustoz Anvar aka bir kitobini menga sovg'a qilib: „Bolalar she'riyatining umid yulduzi — Abdurahmonga“, deb yozdilar. Ustoz Tursunboy aka o'z kitoblariga: „Yomon yozishga haqqингiz yo'q“, degan satrni bitdilar.

\* \* \*

She'rlar suyumli bo'lishi kerak. Ular qanchalik suyumli bo'lsa, dastalanadigan kitoblar shunchalar o'qishli bo'ladi.

\* \* \*

She'rming chin bahosini berishning bitta sinalgan, ishonchli yo'li bor: buning uchun satrlar gap ko'rinishida yozib chiqiladi. Gap shaklidagi satrlar ham o'quvchini hayrat, hayajonga solsa, asar ha-qiqiy hisoblanadi. Agarda aksi bo'lsa, she'r she'r emas, balki qachonlardir, kimgardir aytgan fikrlarning qofsiyali qaytarig'i bo'lib chiqadi.

\* \* \*

Hech bir fikr xayolga o'z-o'zidan kelmaydi. Har biriga biror holat, turtki sabab bo'ladi. Fikrni (avvalroq niyatni) ijodkorning qalbiga Yaratgan soladi.

## MUNDARIJA

Vatan .....	4
Ona tilim .....	4
Yurt posboni .....	4
Toshkentim .....	5
Ozod yurtning Ozodbeklari .....	5
Bolalik .....	6
Ismim haqida she'r .....	6
Sinfdoshim .....	7
Duo .....	8
Kitobsevar .....	8
Navoiylik bolalar .....	9
Metroda .....	9
Zardo'ppi .....	10
Qayerdasiz, do'stlarim? .....	11
Beshigim .....	11
Dugonalar .....	11
G'aroyib avtobus .....	11
Erkatoy .....	12
„Chol“ bola .....	12
Qay biri .....	12
O'z ishining ustasi .....	12
Maqtanchoq .....	13
„Kasalmand“ .....	13
„Arazchi“ .....	14
Toshpo'lat .....	14
„Nozik odamlar“ .....	15
Qitmir .....	16
Maqtov qursin-a .....	16
Ishqiboz .....	16
Chala ish haqida she'r .....	17
Havaskor suratchi .....	18
Shahob .....	19
Toshyna .....	19
Xo'jako'rsin .....	20
Yulduzoyning kulchasi .....	21
Jo'n savolga jo'n javob .....	21
Kim zo'r .....	22
Tojiboyev .....	22

Xayolparast .....	23
Qiyin hisob .....	24
Nodonlik .....	24
Ehtiyot bo'l .....	25
Dadamning „ko'zyosh“lari .....	26
Mening akam .....	26
Noming orzusi .....	27
Hamdam .....	27
Yo'li bor .....	28
Bolalar va bulutlar .....	29
Qushlar .....	29
Varrak qo'shig'i .....	29
Ko'klam sog'inchi .....	29
Anorlar .....	30
„Mehmon“ ko'chatlar .....	30
Xonqizi .....	30
Musicha .....	31
Bulut .....	31
Tabiat qo'ynida dars .....	31
Chivin .....	32
Pashshalar e'tirozi .....	33
Hakka .....	33
O'g'rigina hakkajon .....	33
Tabiat alifbosи .....	34
Qish elchisi .....	39
Qish kechasi .....	39
Qorqiz .....	39
Qalpoqcha .....	40
Qor sog'inchi .....	40
G'alati jumboq .....	41
Uch o'g'il va chaqaloq .....	41
O'rtog'im .....	42
G'aroyib sovg'a .....	42
„Oshiqlar va ma'shuqlar“ .....	43
Jonli savatcha .....	44
Turobning taklifi .....	46
To'rt oyoqli bo'lsa edi .....	46
Tasavvur .....	47
Ko'lmak suv .....	47
Topishmoq .....	47

Bizning Xo'ja.....	48
„Romanist“ .....	48
„Yangilik“ .....	48
Dam olsin-da .....	49
Tavsiyanoma .....	49
Oy va yulduzlar .....	49
G'ozim .....	50
Oytaqirda oy yotar .....	50
Ikki degani, puxta degani .....	50
Mart oyi .....	50
Quyon bilan eshak .....	51
Notanish aka-uka .....	51
Bo'taloq .....	52
Toychog'im .....	52
Sanoq .....	52
Qarg'aning o'tinchি .....	53
Ukam tush ko'rgan emish .....	53
Mushuk nega yig'layapti .....	54
9 .....	54
Qutlug' ostona .....	56
Tanishuv yoki she'riyatga sayohat .....	57
Havasda gap ko'p .....	58
Bolalikdagi qiziqishlarim .....	59
„Alifbe“ bayrami .....	60
Ikkinchi hayajon .....	61
Kunlardan bir kuni .....	63
She'r qanday yoziladi? .....	63
She'r yo'li .....	66
Qalb qo'shig'i .....	69
Ustozlarim .....	70
Mahorat maktabi .....	72
Yoshlikda o'qigan kitoblarim .....	74
Sevimli shoirlarim .....	75
Reja haqida .....	80
So'zning ta'mi .....	81
She'riy shakllar .....	83
Ijodkor do'stlarim .....	86
Jonimning suratlari .....	90

**84 (50') 7 Akbar Abdurahmon**  
**A 40 G‘aroyib avtobus [Matn]: (she’rlar, tarjimalar)**  
**A. Akbar. — Toshkent: «O‘qituvchi», 2012. — 104 b.**

**ISBN 978-9943-02-510-3**

**УДК: 821.512.133 — 1  
КБК 84(50')7**

**ABDURAHMON AKBAR**

## **G‘aroyib avtobus**

*She’rlar, topishmoqlar, tarjimalar,  
yosh qalamkashlarga adabiy saboqlar*

*„O‘qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
Toshkent — 2012*

*Muharrir F. Qosimova  
Badiiy muharrir B. Ibragimov  
Texnik muharrir E. Stepanova  
Kompyuterda sahifalovchi F. Sodiqova  
Musahhih Z. G‘ulomova*

Nashriyot litsenziyası A1 № 161. 14.08.2009.

Original-maketedan bosishga ruxsat etildi 15.11.2012. Bichimi 70 x 90<sup>1</sup>/<sub>16</sub>.

Tayms garniturasi. Kegli 12 shponli. Offset bosma usulida bosildi.

Offset qog'ozи. Bosma t. 6,5. Shartli b. t. 7,60. Nashr t. 5,0. 5000 nusxada bosildi.  
Buyurtma № 261-12.

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligining „O‘qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi.  
Toshkent — 129, Navoiy ko‘chasi, 30- uy. // Toshkent,  
Yunusobod dahasi, Yangishahar ko‘chasi, 1- uy.  
Shartnoma № 07-68-12